

MARTIN EDEN

*“Adolat bu – har bir
insonga o‘ziga munosib
bo‘lganini berish”
Aristotel*



14.02.2025
1-son

DAVLAT
ROBINGUD
BO’LMASLIGI
KERAK

*Korrupsiyani
yengish uchun
iqtisodiy
yondashuv*

*Sanoat siyosati
jamiyat
farovonligining
kushandasasi*

*Kim Ko‘proq
To‘lasa,
O‘sha Hukmron*

*Tarjima:
Erkinlikning
ikki
tamoyili
Isaya Berlin*

DAVLAT “ROBINGUD” BO‘LMASLIGI KERAK

*Agar kimdir mehnatsevarni
mehnatsevarligi uchun jazolab, dangasani
dangasa bo‘lgani uchun rag’batlantirsa,
biz bu jamiyatdaadolat yo’q deb bemalol
ayta olamiz*

Tasavvur qiling, o‘qituvchi imtihondan oldin sinfdagi o‘quvchilarning hech biri past baho olmasligi uchun imtihonda olingan jami ballarni qayta taqsimlashini e’lon qiladi. Ushbu qoidaga ko‘ra, a’lo va yaxshi baho olgan o‘quvchilar qoniqarsiz baho olgan o‘quvchilarning ballarini o‘rtachaga ko‘tarish uchun o‘z ballaridan yetarlicha kechishi kerak bo‘ladi. A’lo va yaxshi baho olgan o‘quvchilar qo‘srimcha ishtiyoq uchun jazolansa, ularning kelgusidagi hatti harakatlari qanday bo‘ishini taxmin qilish qiyin emas. Xuddi shuningdek, bunday o‘yin qoidalari qoniqarsiz baho olgan o‘quvchilarning hatti harakatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Negaki, kamroq harakat qilganlik uchun olinadigan jazo o‘zlari mustaqil erishmagan ballar transferti orqali yumshaydi.

Ushbu misolni mamlakatlar miqyosida ham ko‘rishimiz mumkin. Ko‘plab davlatlarda bu kabi o‘yin qoidalari o‘rnatilgan. Hukumat byudjet mablag‘larini to‘plash uchun a’lo darajada mehnat qilayotgan insonlardan soliq yig‘adi va ijtimoiy himoya dasturlari uchun sarflaydi.

Bunday dasturlar kambag‘allikni qisqartirishda samarali ko‘rinsada, iqtisodiy tahlillar aksincha, samarasiz ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat xarajatlarining nima uchun samarasizligi va samarali usullar qanday bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.




TRANSFERT TO‘LOVLARI NIMA UCHUN SAMARASIZ?

Teskari ta’sir

Transfert dasturlarida nafaqa miqdori nafaqa oluvchilarning daromad darajasiga nisbatan teskari bo‘lgani bois aholining kambag‘al qatlam vakillari “kambag‘allik tuzog‘i”da qolib ketishi mumkin. Negaki transfert to‘lovleri nafaqa oluvchining daromadi oshishi bilan kamayib boradi. Demak, aholining kambag‘al vakillarida daromadni oshirish uchun qilingan qo‘srimcha mehnat rag’batlantirilmaydi, ya’ni, mehnat orqali daromad oshsada, transfert to‘lovleri kamaygani va soliq imtiyozlari yo‘qola boshlagani tufayli sof daromad deyarli o‘zgarmaydi. Natijada transfert oluvchilar shu turdag‘i dasturlardan keladigan foydaga ko‘nikishlari va “qashshoqlik tuzog‘i”da qolib ketishlari mumkin.

NBER’da chop etilgan ushbu maqolada Qo‘sma Shtatlarda yo‘lga qo‘yilgan AFDC, SNAP, HAP kabi farovonlik dasturlarining mehnat bozoriga ta’siri o‘rganilgan. Unga ko‘ra, tashkil etilgan dasturlardan maqsad kambag‘allarga yordam berish bo‘lsada, kamroq mehnat qilishni rag’batlantiruvchi mexanizm dastur foydalanuvclarini kambag‘allik tuzog‘ida qolishiga olib kelgan.


Quyidagi diagramma, ijtimoiy himoya dasturlari mavjud bo'lganda aholining ushbu dastyrlarga bog'lanib qolish muddatini ko'rsatadi.



(Manbaa : fee.org: How Does Government Welfare Stack Up Against Private Charity? It's No Contest.)

Transfert dasturlari nooqilona qaror qabul qilganlik uchun olinadigan jazoni yumshatadi va shu sababli bu kabi qarorlarni qabul qilmaslikka bo'lgan rag'batni pasaytiradi. Masalan, ishsizlik nafaqalari tufayli ishsizlar mavjud ish takliflarini rad etishi va yaxshiroq ish qidirishni davom ettirishi mumkin.

Natijada, ish qidirish uchun ko'proq vaqt sarflanishi va bu ishiszlik darajasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Keling, quyidagi grafikka nazar soladigan bo'lsak, rivojlangan dunyo mamlakatlari yo'l qo'ygan xatoliklar tufayli yuzaga kelgan muammo qanday ko'rinishga ega ekanligi haqida aniqroq tasavvur etish mumkin.



Ushbu grafikda ko'ringanidek, so'ngi 60 yil ichida AQSH, Kanada, Fransiya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida ijtimoiy himoya uchun transfert to'lovlar karrasiga oshgan. Shunga qaramasdan mamlakatlardagi kambag'allik darajasi deyarli o'zgarmagan.

Maitreesh Ghatak'ning "kambag'allik tuzog'i va kambag'allik bilan kurash" maqolasida davlatning transfert dasturlari nima uchun samarasiz bo'lishi va qanday qilib samarali kurashish mumkinligi haqida so'z borgan. Unga ko'ra shartsiz nafaqalar (unconditional cash transfers), ya'ni hech qanday shartsiz to'g'ridan-to'g'ri to'lanadigan pul mablag'lari qisqa muddatda kambag'allikni yengillashtirishi mumkin bo'lsada, uzoq muddatda samarasiz bo'ladi. Jumladan, shartli nafaqa to'lovleri (conditional cash transfers), ya'ni nafaqa olish uchun muayyan talablarga rioya etish talab etiladigan dasturlar (masalan bolalarni maktabga yuborish va tibbiy ko'rikdan o'tish kabi) kambag'allikni yengish uchun uzoq muddatli ta'sirlarga ega. Negaki. kambag'al qatlam vakillarida keljakdagi daromadlarni oshirish uchun o'z inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyati bo'lmaydi. Shunday ekan, kambag'al qatlam vakillariga davlat tomonidan to'lanadigan nafaqalar ta'lim va tibbiy xizmat kabilarni sotib olish uchun vaucherlar ko'rinishida taqdim etilsa, kambag'allikni qisqartirish uchun ko'rileyotgan chora-tadbirlarning samaradorligi oshishi mumkin.

KATTA, AMMO KO'RINGANIDEK EMAS

Transfert dasturlari kambag'al qatlam vakillariga yordam berish maqsadida tuzilgan bo'lsada, ko'rsatilayotgan yordam miqdori ko'ringanidan kamroq bo'ladi, ba'zida, uzoq muddatli salbiy ta'sirga ega bo'lishi ham mumkin. Boisi, transfert to'lovlarini olish uchun egalik qilish kerak bo'lgan aktivning qiymati, ushbu aktivga bo'lgan talabning ortishi natijasida oshib ketadi. Natijada transfert dasturidan olinajak foyda yo'qotiladi. Masalan, AQSHda imtiyozli ta'lim krediti va grantlar ta'lim narxini tushirish uchun o'ylab topilgan edi.

Ammo ushbu dastur ta'limga bo'lgan talabni ko'paytirib, o'qish narxini oshirdi. Bundan tashqari, mehnat bozorida xizmat taklifi ortgani tufayli diplom qadri tushib, maoshlar pasaydi. Natijada, universitetni endi tamomlagan bitiruvchilarning qarz yuki og'irlashdi.

Xuddi shunday, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirmoqchi bo'lgan yoki chorvachilik va parrandachilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kambag'al oilalarga ajratiladigan imtiyozli kreditlar ham salbiy oqibatlarga ega. Masalan, qishloq xo'jaligiga beriladigan subsidiyalar hayvonlarning narxiga ta'sir ko'rsatib, bozor mexanizmlarini o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatuvchi dalillar turli mamlakatlarda qayd etilgan. AQShdag'i subsidiyalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, fermerlar uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam yer va chorvachilik uchun talabni oshiradi. Bu esa yer va hayvonlar narxining oshishiga olib kelib, kambag'al qatlam vakillarining xarid qobiliyatini pasaytiradi.

KAMBAG'ALLARGA KIM YORDAM BERADI?

Demak, davlatning "ezgu niyat"da qilgan xarajatlari o'zini oqlamasa, kambag'allarga kim yordam beradi? Davlatning go'yoki jozibador ko'rindigan ijtimoiy himoya dasturlari o'rmini bosuvchi samarali variant mavjudmi? Keling bu savolga javob topishga harakat qilamiz.

Bir qancha tadqiqotlarni o'rganish natijasida, davlat xarajatlarining kamayishi tufayli soliq yukinining pasayishini, bu o'z navbatida qo'shimcha daromad effektini yaratib, xayriya qilishga imkon berishini kuzatdik. Boshqacha qilib aytganda, odamlar kambag'allarga davlat yordam berayotganini bilsa, xayriya qilmaydi. Aksincha holatda xayriya qilish uchun stimullar paydo bo'ladi. Masalan, ushbu tadqiqotga ko'ra, mahalliy hukumatlarning ijtimoiy xarajatlari 10 so'mga oshishi aholining xayriyaga ajratmalarini 6.4 so'mdan ko'proq miqdorga kamaytiradi. Davlatning sotsial roli kamayganini bilgan fuqarolar xayriyalarni 17%, 34% va ba'zi hollarda 44% gacha ko'paytirishadi.


Shu bois davlat xarajatlarining kamayishi ijtimoiy faoliyki oshiradi deya xulosa qilishimiz mumkin. Tadqiqotlardan yana biri shuni ko'rsatdiki soliq yukining kamayishi xayriyalarining chastotasini ham, miqdorini ham oshiradi. Misol uchun, AQShda o'tgan asrning 80-yillarda o'tkazilgan soliq islohotlaridan so'ng xayr-ehsonlar 3 foizga oshgan. Kelgusi yillarda o'tkazilgan so'rovlar ham o'rtacha o'sishni qayd etgan. Xayriya ishlari lokomotivi bo'lmish United Way ma'lumotlariga ko'ra fond mablag'lari 1986-1987-yillarda 6,6 % va 1987-1988-yillarda 6,9 % oshgan.

XAYRIYA MABLAG'ARI IJTIMOIY HIMOYA DASTURLARIDAN SAMARALIROQMI?

Hukumat ijtimoiy transferlar uchun ommani soliqqa tortadi. Soliq to'lanaadigan har bir so'mning ma'lum bir qismi har doim byurokratik xarajatlar; ish haqi, asbob-uskunalar, binolar va boshqalarni sotib olishga, energiya bilan ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish va boshqa qo'shimcha xarajatlarni qoplashga ketadi. Qolgan qismi maqsadli aholiga naqd pul yoki natura shaklida beriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, davlat daromadlarini qayta taqsimlash agentliklari ularga byudjetdan ajratilgan har bir dollarning taxminan uchdan ikki qismini, ba'zi hollarda esa har bir dollarning to'rtadan uch qismini o'zlashtiradi.

Hukumat yordami uchun byudjetga ajratilgan har bir dollarning o'rtacha 70 senti kambag'allarga emas, balki ijtimoiy byurokratiya a'zolariga va kambag'allarga xizmat ko'rsatuvchilarga yo'naltiriladi.

Davlat daromadlarni qayta taqsimlashining oqibati boy berilgan muqobil imkoniyatlarda ko'zga tashlanadi. Agar davlat idorasi o'z byudjetiga ajratilgan har bir so'mning atigi uchdan bir qismini maqsadli aholiga yetkazib bersa, u holda yetkazib beriladigan har bir so'm uchun uch so'mdan ajratilishi kerak. Bozorda bu pulni samarali ishlab topgan soliq to'lovchilarning har 2 so'm puli chindan ham bu pulga muhtoj bo'lgan insonlarga emas, byukoratlar va ularning xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi.



(Manbaa: Theadvocates.org: How Effective is Government Welfare Compared to Private Charity?

Bundan farqli o'laroq, xususiy xayriya tashkilotlarida ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar o'rtacha hisobda berilgan har bir so'mning uchdan bir qismini yoki undan kamini o'zlashtiradi va qolgan uchdan ikki qismini (yoki undan ko'pini) yetkazib beradi. Xayriya tashkilotlarini baholab boruvchi Charity Navigator ma'lumotlariga ko'ra, ular baholagan tashkilotlarning 90 foizi byudjetning kamida 65 foizini maqsadli yo'naltiradi. Xususiy va davlat idoralari o'rtasidagi bunday katta farqning sababini ilg'ash qiyin emas. Ko'pincha ixtiyoriy badallarga bog'liq holda, aksariyat xususiy agentliklar samarali faoliyat yuritish va xarajatlarni past ushlab turish uchun kuchli bosim ostida, raqaobatli muhitda faoliyat yuritadi. Xayrehsonlarining iloji boricha kattaroq qismini muhtojlarga yetkazish ularni bozorda yashab qolishini ta'minlab beradi, aksincha, samarasiz ishlagan agentliklarga fuqarolar xayriya qilishmaydi.

Xayriya tashkilotlari o'rtasidagi raqobat samaradorlikni ta'minlaydi. "Philanthropy Roundtable" tomonidan to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, davlat idoralari va xususiy muassasalar samaradorligini taqqoslagan 71 ta turli tadqiqot natijalariga ko'ra, 56 ta holatda xususiy xayriya agentliklari yaxshiroq natijalarga erishgan, 71 ta holatdan 5 tasidagina davlat idoralari samaraliroq ishlagan.

XULOSA

Ijtimoiy himoya dasturlari orqali aholining kambag'al vakillariga ko'rsatilayotgan yordam kutilgan natijani bermasligi bilan birga, iqtisodiy o'sish uchun katta to'siq bo'ladi. Yuqoridagi misolda o'qituvchi tomonidan o'rnatilgan o'yin qoidalari o'quvchilarining rag'batlariga salbiy ta'sir o'tkazgani singari, ijtimoiy tenglik kabi g'oyalar ham xuddi shunday ta'sirga ega. Davlat "Robingud" obrazidan voz kechsa, bu fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishi, insonlar orasidagi ishonchni kuchaytirishi va qaramlikni to'xtatishi mumkin.

O'ylaymizki, davlat qiymat yaratadigan loyihalarni qo'llab quvvatlashi va shu orqali iqtisodiy o'sishga intilishi zarur. Shu ma'noda, xususiy lashtirishni to'xtatmaslik hamda iqtisodiyotni liberallashtirishda davom etish hayot sifatining yaxshilanishiga va farovonlikning ortishiga olib keladi.

Mualliflar:

Muhammad Turniyozov va Xadyatillo Sobirxo'jayev



SANOAT SIYOSATI JAMIYAT FAROVONLIGINING KUSHANDASI



Iqtisodiyotning asosiy vazifasi - mamlakatdagi mayjud resurslardan oqilona foydalanib barcha fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Muammo shundaki, resurslarimiz cheklangan, ehtiyojlarimiz esa aksincha, cheksiz. Demak, imkoniyatlarimizdan maksimal darajada foydalanishimiz uchun resurslarni eng optimal variantda sarflashimiz zarur. Bu vazifani samarali amalga oshirishda sanoat siyosati bozor iqtisodiyotiga nisbatan muvaffaqiyatsiz ekanligini isbotlovchi bir qancha mantiqiy va empirik dalillar bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda nafaqat jamoatchilik orasida balki davlat amaldorlari orasida ham sanoat siyosati muhim ekanligini ta’kidlayotganlar yo‘q emas. Keling, bugun bozor iqtisodiyoti nega muhim ekanligini va sanoat siyosatining samaradorlikka qanday salbiy ta’sirlari borligini ko‘rib chiqamiz

Bozor Iqtisodioti: Foyda va Zarar resurslarni samarali taqsimlaydi

Bozor erkin bo‘lgan muhitda tadbirkorlik qilish, ya’ni tarqoq resurslarni qiymatli tovarga aylantirib sotish oson bo‘ladi. Ammo, korxona resurslarni resurs egalaridan sotib olishi uchun ularga ushbu resurslardan muqobil faoliyatda olish mumkin bo‘lgan daromadga teng haq to‘lashi kerak. Shu bilan birga, korxona faoliyati davom etishi, kengayishi va ko‘proq resurslarni o‘ziga jalb qilishi uchun, ishlab chiqarilgan tovarning muqobil qiymati sarflangan resurslardan boshqa potensial faoliyatlarda olinishi mumkin bo‘lgan qiymatga teng bo‘lishi kerak. Foyda olish uchun esa savdodan tushgan daromad sarflangan resurslarning muqobil qiymatidan katta bo‘lishi lozim. Demak, iste’molchilar tovar yoki xizmat qadrini uning tannarxidan yuqori baholasa korxona foyda oladi va bozorda faoliyatini davom ettiradi. Tushunganingizdek, bunday iqtisodiy hisob buxgalterlik hisobidan biroz farq qiladi.

Doim foyda ketidan quvuvchi insonlarni ko'pchilik yomon ko'rsada, ular jamiyat uchun eng kerakli insonlar ekanligini tushunish kerak. Buning uchun o'zimizga shunday savol beraylik: -Kim eng ko'p foydani qo'lga kirita oladi? Menimcha, bunga quyidagicha javob bersak to'g'ri bo'ladi: -Albatta, jamiyatga eng kerak bo'lgan tovar yoki xizmatni eng tez va eng maqbul narxda yetkazib bergen odam! Shunday ekan, eng yaxshi odam bu - eng boy odam deyishimiz mumkin.

Buxgalteriya hisobi:

Foyda = Jami daromad - jami xarajat > 0

Iqtisodiy hisob:

Foyda = Jami daromad - (jami xarajat + muqobil qiymati) > 0

Foyda – bu resurslarni qadrliroq buyumga aylantirish uchun olinadigan mukofot bo'lib, korxona faoliyati davom etishi uchun rag'bat sanaladi. Iqtisodiy foydaga erishish esa raqobat bozorida korxonaning raqobatbardoshligini msutahkalaydi.

Ammo har doim ham bizneslar muvaffaqiyatlil bo'lmasligi mumkin. Ba'zan, cheklangan resurslarimizni nooqilona sarflaydigan va qiymatsiz mahsulot yaratadigan loyihibar ham tug'iladi. Ammo, bozor iqtisodiyoti bunday loyihibar uzoq vaqt yashamasligini ta'minlaydi. Demak, savdodan olingan jami daromad mahsulotni ishlab chiqarishda sarflangan resurslarning muqobil qiymatidan kam bo'lsa - bu zararga olib keladi. Korxona ishlab chiqargan mahsulotning iste'molchilar uchun qadri sarflangan resurslarning qiymatidan past baholansa korxona zarar ko'radi.

Buxgalteriya hisobi:

Zarar = Jami daromad - Jami xarajat < 0

Iqtisodiy hisob:

Zarar = Jami daromad - (jami xarajat + muqobil qiymati) < 0

Zarar – bu resurslardan samarasiz foydalanganlik uchun “jarima” bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati, sarflangan resurslardan samarali foydalangan holda yaratilishi mumkin bo'lgan qiymatdan past bo'lganda yuzaga keladi va korxona faoliyatini to'xtatishga yoki resurslardan samarali foydalishiga rag'batlantiradi. Demak, bozor iqtisodiyoti samarasiz korxonalaridan resurslarni olib samarali korxonalar tomon yo'naltiradi. Qaysi ishlab chiqaruvchi samarali yoki samarasiz ekanligini hal qiluvchi hakam vazifasini esa iste'molchilar bajaradi. Axir, tovar yoki xizmat iste'molidan olingan foyda qiymatini uni iste'mol qilgan odamdan boshqa yana kim yaxshiroq baholay oladi? Albatta, hech kim!


Raqobat bozorida teng imkoniyatlar bilan faoliyat olib borayotgan korxonalarining asosiy maqsadi foydani maksimallashtirishdan iborat. Shunday ekan, iqtisodiyotning qaysidir sohasida yangi, samaraliroq ishlab chiqaruvchi korxonalarining paydo bo'lishi, samarasiz ishlayotgan boshqa korxonalarining yopilishiga sabab bo'ladi. Samaraliroq korxonalar ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun, tabiiyki, ko'proq resursdan foydalanadi va natijada boshqa korxonalar kamroq hajmda ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, samarali korxonalar faoliyatining qo'shimcha qiymati, iqtisodiyotning boshqa sohalarida boy berilayotgan qiymatni minimallashtirishga harakat qiladi. Qolaversa bu orqali boshqa korxonalar uchun resurslarning eng samarali kombinatsiyasi aslida qanday bo'lishi kerakligi ham aniqlanadi. Samarasiz korxona faoliyatiga nuqta qo'yilishi bir qancha investorlar va ishchilar uchun alamli bo'lsada jamiyat va iqtisodiyot uchun foydalidir. Negaki, samarasiz sarflanayotgan resurslardan boylik yarata oluvchi boshqa faoliyatlarda foydalanish mumkin. Bozor iqtisodiyoti bizga taqdim etayotgan manashu imkoniyatni sanoat siyosati yo'qqa chiqaradi.

Sanoat siyosati jamiyat farovonligini qisqartiradi


Sanoat siyosati – bu davlatning iqtisodiy rivojlanish va o'sishni qo'llab quvvatlash uchun ayrim sanoat korxonalarini rag'batlantirish, himoya qilish va rivojlantirish maqsadida amalga oshiradigan siyosiy-iqtisodiy chora tadbirlaridir. Davlat bu ishni aryim korxonalarga subsidiya berish, tovar va xizmatlarga tarif va notarif to'siqlar qo'yish va soliq imtiyozlari berish bilan amalga oshiradi. Ushbu siyosat garchi ezgu niyatda amalga oshirilsada cheklangan resurslarimizning samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Buning birinchi sababi davlatda bozor mexanizmida bo'lgani kabi qaysi biznes bozorda qolishi kerag-u qaysi biznes bozorni tark etishi kerakligini aniqlay oladigan instrument yo'qligida bo'lsa, ikkinchisi imtiyozdan manfaatdor guruhlarning samaradorlikka emas samarasizlikka intilishdan rag'batga ega deyish mumkin.

Birinchidan, subsidiya va soliq imtiyozlari kabi dasturlardan manfaatdor bo'lgan korxonalar ushbu dasturlarlardan foydalanmaydigan korxonalarni bozordan siqib chiqaradi. Bozorga kirayotgan yangi korxonalar ham subsidiya olayotgan korxonalar bilan raqobat qila olmagani tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ya'ni, narx buzib ko'rsatilgani ortidan sanoat siyosatidan manfaatdor bo'lgan korxonalar ishlab chiqaradigan tovar uchun sarflangan resurslarning muqobil qiymati yo'qqa chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, samarasiz korxonalarning davlat himoyasida bo'lishi resurslardan samarali foydalaniib, ko'proq qiymat yaratma oladigan loyihalarning tug'ilmasligiga sabab bo'ladi va resurslar bozor iste'molchilariga bog'liq korxonalardan, siyosatchilar xayrixohligiga bog'liq korxonalar tomon oqa boshlaydi.



subsidiya ajratilishidan oldin, bozor holati



subsidiya ajratilgandan keyin, bozor holati

Ushbu grafik bozor narxini sun'iy ravishda davlat subsidiyasi orqali arzonlashtirishning badali qanday ekanligini tasvirlaydi. Ko'rib turganingizdek, bunday holatda narx asl narxdan past bo'lgani uchun ortiqcha iste'mol yuzaga keladi. Buni iste'molchilarning foydasi deb hisoblash juda noto'g'ri bo'lar edi, chunki, iste'molchilarning subsidiya ajratilgan holatdan oladigan "foydasi" subsidiya uchun qilinadigan xarajatdan ancha kam. Eng asosiysi, davlat qaysidir sanoat korxonasini qo'llab quvvatlash uchun subsidiya ajratsa, bu boshqa korxonalarning olishi mumkin bo'lgan foydasini qisqartirish evaziga amalga oshadi. Foya olishi mumkin bo'lgan korxonalar davlat aralashuvi tufayli bozorni tark etishi esa resurslarning noto'g'ri sarflanishiga olib keladi va biz buni yo'qotilgan farovonlik deb ataymiz.

Bunday shaklda davlat amaliyotining joriy qilinishi salbiy ijtimoiy oqibatlarga ham ega. Negaki, korxona ishlab chiqargan mahsulotni odatda boylar ko'proq, kambag'allar kamroq sotib oladi. Demak, iste'molning bir qismi davlat tomonidan subsidiya orqali to'lab berilayotgan ekan, boylar kambag'allardan ko'ra ko'proq nafaqa oladi. Boshqacha qilib aytganda, kambag'allar boylarning iste'moli uchun soliqlari bilan to'laydi. Bu esa ijtimoiy tabaqlanishni kuchaytiradi.

Masalan, O'zbekistonda uzoq yillardan beri energetik resurslarni ishlab chiqarish uchun davlat subsidiya ajratadi. Ijtimoiy norma tariflari o'rnatilgach tizimning regressivligi nisbatan pasaygan bo'lsada, ko'pchilik hanuzgacha iste'mol uchun tannarxdan past tariflarda to'lab kelmoqda (elektr energiyaning tannarxi 1 kw/h uchun 970 so'm bo'lsada, ijtimoiy norma tariflari 200 kw/h gacha 450 so'm va 201 kw/h dan 1000 kw/h gacha 900 so'm etib belgilangan). Boy va kambag'al qatlam vakillari bir-biriga proporsional (mutanosib) bo'limgani uchun davlat subsidiya ajratishni to'xtatgani yo'q va bu regressiv tizimning davom etishiga asos bo'lyapti. Bu kabi muammolarni hal etish va islohotni to'liq yakunlash uchun sohada xususiylashtirishni shaffof tarzda amalga oshirish va narxlarni erkinlashtirish zarur. Aholining eng kambag'al qatlam vakillariga esa subsidiya pullarini vaucher ko'rinishida taqdim etish mumkin. Bunday yechim tizimning regressivligini batamom tugatadi hamda iste'molchilarga, jumladan ishlab chiqaruvchilarga energetika resurslarini qancha miqdorda ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish va qancha miqdorda tejash zarurligi haqida to'liq ma'lumot beradi.

Ikkinchidan, subsidiya va soliq imtiyozlarini olayotgan korxonalar xarajatlarni qisqartirish va sifatli mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarishdan yetarlicha manfaatdor bo'lmaydi. Boisi, odatda subsidiya dasturlari daromadga nisbatan teskari qo'llaniladi. Tushunarli qilib aytganda, korxona o'z xarajatlarni qisqartirib daromadlarini oshirganda, byudjetdan to'lanayotgan subsidiya mablag'lari qisqaradi. Demak, korxonaning sof daromadi o'zgarmaydi. Shuning uchun korxona rahbarida xarajatlarni qisqartirishga emas balki oshirishga va shu orqali sof daromadini ham ko'paytirishga rag'bat paydo bo'ladi. Masalan, zavod-fabrikalardagi uskunlar qancha tez eskirsa qo'shimcha xarajat qilish va byudjet mablag'larini ko'proq jalb qilish mumkin. Shunday ekan, bu holatda korxona uskunalarini muddatidan oldin eskirtirishdan va shu kabi bema'ni faoliyatlar bilan shug'ullanishdan manfaatdor emas deb kim aytta oladi?

Misol uchun, mazkur tadqiqot subsidiyalarni iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida baholaydi va ularning amalda qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini empirik dalillar asosida tahlil qiladi. Ushbu tahlil natijasida, subsidiyalar ko'pincha noto'g'ri iqtisodiy rag'batlarni yaratib, korxonalarning unumdoorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlaydi.


PROTEKSIONIZM - ANGLAnMAGAN NODONLIK

Sanoat siyosatining yana bir ko'rinishi proteksionizm bo'lib, u savdoga tarif va notarif cheklovlar kiritish bilan amalga oshiriladi. Hammaga ma'lumki ushbu iqtisodiy siyosat, ayniqsa, avtomobil sanoatida uzoq yillardan beri o'zbekistonliklarning og'riqli masalasi bo'lib kelmoqda. Proteksionistlar qo'shimcha ish o'rirlari yaratish va eksport hajmini kengaytirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash uchun importga tariflar yoki kvotalar o'rnatish zarurligini ta'kidlasalarda ularning g'oyasi mantiqan noto'g'ri ekanligini tasdiqlovchi nazariyalar va empirik dalillar mavjud.

Birinchidan, importga qo'yilgan cheklovlar eksport qilish potensialini qisqartiradi. Agar biz xorijliklarni yurtimizga mahsulot sotishini cheklasak, o'z-o'zidan ularga mahsulot sotishimiz ham qiyinlashadi. Chunki, importga qo'yilgan cheklovlar milliy valyutamizning kursini sun'iy ravishda oshiradi. Natijada, xorijliklarning mahalliy eksport qiluvchilardan sotib olish qobiliyati ham qisqaradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, import qilish imkoniyati ayni paytda eksport qilish yoki investitsiya jalb qilish qobiliyatini ham oshiradi. Shu jumladan, proteksionizm iqtisodiy siyosati tufayli eksport qilish qobiliyatiga ega samarali korxonalar prioriteti mahalliy bozorga qaratilgan samarasiz korxonalarni rag'batlanirish evaziga jazolanadi. Demak, ushbu amaliyat sababli eksport qiluvchi korxonalarda qisqargan ishlab chiqarish hajmi va ish o'rirlari evaziga "qutqarib qolning" korxonalarda yaratilgan ish o'rinalidan olinadigan manfaat yo'qqa chiqadi.

Ikkinchidan, proteksionizm iqtisodiy siyosati amalga oshirilganda jamiyatning sof yo'qotishi ishlab chiqaruvchining yutug'idan katta bo'ladi. Quyidagi grafikda sof yo'qotish hajmi mahalliy ishlab chiqaruvchilarining yutug'idan kattaroq bo'lishini ko'rish mumkin.

Proteksionizm sharoitida iqtisodiyotning sof yo'qotishi



Tushunganingizdek, ayrim tovarlarga ishlab chiqarish orqali egalik qilgandan ko'ra savdo orqali egalik qilganda umumiyl yutuq hajmi katta bo'ladi. Aksincha bo'lganda, yo'qotishlarni boshdan kechiramiz. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, aslida arzon narxda olishingiz mumkin bo'lgan mahsulotni sun'iy ravishda yaratilgan qimmat narxda sotib olsangiz bilvosita kambag'allashasiz. Ma'no shundaki, sun'iy ravishda qimmatlashtirilgan mahsulotni sotib olgan barcha xaridorlarning zarari mahalliy ishlab chiqaruvchining sun'iy yaratilgan foydasidan katta. Demak, savdoga cheklovlar odamlarni bilvosita kambag'allashadiradi, samarali korxonalarni jazolash evaziga samarasizlarni rag'batlantiradiradi hamda foya va zarar kabi adolatli mexanizmlarni yo'qqa chiqaradi. O'zbekistonda proteksionizm orqali qo'llab quvvatlanayotgan sanoat korxonalari jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishini istasak ushbu iqtisodiy siyosatdan voz kechilishi va raqobatli bozor muhiti kirib kelishiga to'siq qo'yimasligi kerak.

Xulosa

Sanoat siyosati iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi deb qaralsada har doim ham unday bo'lavermaydi. Faqatgina, "ijtimoiy ne'matlar" deb ataluvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda bozor muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Anashunday muvaffaqiyatsizliklarni yumshatish uchun davlat aralashuvi zarur. Biroq, bozor muvaffaqiyatli ishlab chiqara oladigan sohalarda davlat aralashuvi kuzatilsa narx buzib ko'rsatiladi hamda foya va zarar kabi instrumentlar yo'qqa chiqadi. Iqtisodiy o'sish - mavjud resurslarimizdan samarali foydalanishimizni taqozo qilar ekan, keraksiz davlat aralashuvi bilan unumdoorlikning o'sishiga to'siq qo'yimasligi kerak.

Muallif:

Muhammad Turniyozov



KORRUPSIYANI YENGISH UCHUN IQTISODIY YONDASHUV

Korrupsiya va nepotizm jamiyatdaadolatsiz o'yin qoidalarini shakllantiradi. Bu muammolarni barchamiz tan olamiz, shu bilan birga tez – tez qaysidir mansabdoorning pora evaziga yer sotgani yoki davlat mablag'larini talon-toroj qilgani haqidagi xabarlarga duch kelamiz. Biroq, biz faqat qo'lga tushgan jinoyatchilarni ko'ra olamiz, qo'lga tushmaganlari esa qancha miqdorda jinoyat sodir etayotganini aniqlash, afsuski, murakkab. Shunday bo'lsada, jinoyatchilarning xulq atvoriga qanday omillar ta'sir etishini tahmin qilish mumkin. Xo'sh, nega ayrim shaxslar o'z mansabini suiste'mol qiladi? Ular yomon insonlarmi yoki korrupsiya ularning qon-qoniga singib ketganmi? Yo'q, aslida, ular shunchaki iqtisodiy hisob-kitob orqali kutilmalar ijobjiy bo'lgani uchun jinoyat qilish qarorini

qabul qilishadi. Har bir shaxs o'z hatti-harakatlarini foya va zarar, ehtimoliy manfaat va xavflarni hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Jinoyatchilikni kamaytirish masalasida eng ko'p aytildigan takliflar, qattiqroq jazolar joriy etish, odatda umrbod qamoq jazosi yoki o'lim jazosini qo'llash bo'ladi. Biroq, og'ir jazo belgilash muammoni hal qila olmaydi. Masalan, Shimoliy Koreyada korrupsiya uchun og'ir jazo – uzoq muddatli qamoq va hatto o'lim jazosi ham qo'llaniladi. Shunga qaramay, Transparency International'ning 2023-yilgi korrupsiyani qabul qilish indeksida Shimoliy Koreya 180 mamlakat orasida 172-o'rinni egallagan. Bu esa jazolarning qattiqligi jinoyatchilikni kamaytirishda yetarli emasligini ko'rsatadi. Xo'sh, unday bo'lsa qaysi omil jinoyatchilikning kamayishiga turtki bo'ladi? Ushbu maqolada aynan shu savolga javob topishga harakat qilamiz.

Jinoyat va Jazo: Iqtisodiy Yondashuv

Iqtisodiyot bo'yicha nobel mukofoti sovrindori Gary Becker 1968-yilda chop etilgan "Jinoyat va Jazo: Iqtisodiy Yondashuv" nomli maqolasida jinoyatchilikni iqtisodiy model sifatida tahlil qilgan. Uning fikricha, jinoyatchilar oddiy iqtisodiy agentlar singari o'z manfaatlarini maksimal darajada oshirishga harakat qiladi. Ular jinoyat sodir etish yoki qilmaslik haqidagi qarorlarini ehtimoliy foya va xarajatlarni tahlil qilish orqali qabul qilishadi. Becker jinoyatchilarni ratsional agentlar deb hisoblaydi. Ya'ni, ular jinoyatdan oladigan manfaat bilan jazoga tortilish ehtimoli va jazoning og'irligini solishtirib qaror qabul qiladilar.

Model quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- 1.Jinoyatdan olinadigan foyda (**B**): Jinoyatchi sodir etgan jinoyat natijasida oladigan moddiy yoki nomoddiy daromad.
- 2.Jazoga tortilish ehtimoli (**p**): Hukumat tomonidan jinoi faoliyatga qarshi choralar qanchalik samarali ekanini ifodalaydi. ($0 < p < 1$)
- 3.Jazoning qattiqligi (**F**): Agar jinoyatchi qo'lga tushsa, unga beriladigan jazoning og'irlilik darajasi.

Jinoyatchining qaror qabul qilish jarayoni quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$EU = (1 - p) * B - p * F$$

Bu yerda **EU** – jinoyatchining kutilayotgan foydasi (expected utility). Agar **EU** musbat bo'lsa, jinoyat sodir etish iqtisodiy jihatdan foydali deb topiladi. Agar **EU** manfiy bo'lsa, jinoyatchi jinoyat sodir etmaydi. Tushunganingizdek, **p** bu jazolanish ehtimolligiga teng bo'lsa, demak $(1 - p)$ jinoyatchining jazolanmaslik ehtimoliga teng.

Misol uchun tasavvur qiling, tuman hokimiga \$25 000 pora taklif qilindi. Demak, hokim qanday qaror qabul qilishi mumkin:

- Agar u muvaffaqiyatl bo'lsa, \$25 000 foyda oladi ($B = \$25\,000$).
- Agar qo'lga tushsa va 10 yilga qamalsa, bu davrda yo'qtodigan daromadi (agar oylik maoshi \$800 bo'lsa), $F = 800 * 12 * 10 = \$96\,000$.
- Jazolanmaslik ehtimoli yuqori deb hisoblabsak, $p = 0.2$

Bu holda kutilayotgan foyda quyidagicha hisoblanadi:

$$EU = (1 - 0.2) * 25\,000 - 0.2 * 96\,000$$

$$EU = 20\,000 - 19\,200 = 800$$

Natija musbat bo'lgani uchun, jinoyat qilish iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib chiqadi. Modelning mohiyatini tushunib olgan bo'lsak, keling endi, potensial jinoyatchilarning jinoyat qilmaslik qarorini tanlashiga turtki bo'luvchi omillarga to'xtalib o'tamiz.

Korrupsiyani kamaytirishning ikki usuli

Transparency International xalqaro nodavlat tashkilotining 2023-yilgi Korrupsiyani qabul qilish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 180 ta davlat orasida 121-o'rinni egalladi. Shu bilan birga, O'zbekiston 2023-yilda korrupsiya darajasi bo'yicha 33 ball to'plagan, bu esa hali ham korrupsiya yuqori ekanini bildiradi (100 ball – eng past korrupsiya darajasi, 1 ball – eng yuqori korrupsiya darajasi). Umuman olganda, nafaqat korrupsiya darajasi balki umumiy jinoyatchilik darajasi ham 2019-2023-yillarda 2,3 barobarga (46mingdan 104 mingtaga) oshgan. Ushbu ko'rsatkichlardan tahmin qilish mumkinki, O'zbekistonda potensial jinoyatchining jinoyat qilishidan oldin jazolanish ehtimoli to'g'risidagi kutilmalari juda ijobiyl, ya'ni p 1 dan ancha uzoq va 0 ga juda yaqin bo'lishi mumkin. Demak, jazolanish ehtimolini oshirish jazoning muqarrarligi ta'minlanishi bilan amalga oshishi kerak. Buning uchun, sudning defakto musstaqillagini va demokratiya darajasini oshirish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash zarur. Shu yo'l bilan, jazolanish ehtimoli (p) ni oshirish ya'ni 1 ga yaqinlashtirish hamda jazolanmaslik ehtimoli ($1 - p$) ni kamaytirish ya'ni 0 ga yaqinlashtirish mumkin. Natijada EU aksariyat hollarda manfiy bo'ladi.

Albatta, bu eng muhim va qilinishi shart bo'lgan ishlardan bo'lsada, qo'shimcha sifatida F ni ya'ni jazoning og'irligini ham oshirish mumkin. Ammo bu jazo sifatida uzoq muddatli qamoq yoki o'lim kabi og'ir jazo belgilanishi kerak degani emas. F ni boshqa, ya'ni oylik daromadlarni oshirish yo'li bilan ham kattalashtirish mumkin. Misol uchun, hokimning maoshi yuqoridagi kabi \$800 emas, \$2000 bo'lsa, keyingi 10 yilda topishi mumkin bo'lgan kattaroq foyda yo'qotilishi va kutilayotgan foyda manfiy chiqishi mumkin edi. Biroq, muammo shundaki, oylik daromadlarni oshirish oson ish emas. Muhim davlat amaldorlariga qo'shimcha pul berish uchun boshqa joydan pul olishga to'g'ri keladi. Ammo qayerdan, buni qanday amalga oshirish mumkin?

Yaponiyalik olimlar tomonidan 82 ta mamlakatni qamrab olgan tadqiqotda, demokratiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiyotda davlat ulushining kengayishi korrupsiya darajasining oshishiga olib kelishi o‘rganilgan. Demak, davlat apparatini qisqartirish iqtisodiyotda davlat ulushini qisqarishiga hamda o‘z – o‘zidan korrupsiya darajasining tushishiga olib keladi. Bundan tashqari, davlat apparatida qolgan xodimlarning oylik maoshlarini oshirishga imkoniyat paydo bo‘ladi. Bu orqali jinoyat uchun jazoning og‘irligi ham oshadi (F kattalashadi).

Bu borada Gruziya tajribasi yaqqol misol bo‘la oladi. Sakashvili hokimiyatga kelgach davlat apparatini xususiyashtirish orqali qisqartirgan edi. Natijada korruppsiya manbaasi bo‘lmish ko‘plab lavozimlar g‘oyib bo‘lib qolgani bois korrupsiya darajasi ham keskin pasaydi. Transparency International tashkilotining "Korrupsiyani qabul qilish indeksi"ga ko‘ra, 2003-yilda Gruziya 124-o‘rinni egallagan. Islohotlardan so‘ng, 2010-yilda Transparency International Gruziyani "dunyodagi eng yaxshi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat" deb e’tirof etdi. 2014-yilga kelib, Gruziya 51-o‘ringa ko‘tarilib, Yevropa Ittifoqining ayrim rivojlangan mamlakatlarini ham ortda qoldirdi.

Iqtisodchi Larisa Burakovning “Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi” nomli kitobida, Gruziya korrupsiyaga qarshi kurash kengashi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlagan Vato Lejava shunday degan edi: “Agarda davlat xizmatchisining maoshi 20 dollar bo‘lsa, korrupsiyaga qarshi kurashishni qanday qilib unga ishonib topshirish mumkin? Yaxshisi bu xodimning o‘zi ham, bu kabi vazifa ham bo‘limgani ma’qul. Ya’ni xodimlar sonini kamaytirish, ularning maoshlarini bir necha marta oshirish va hatto nazariy jihatdan ham keraksiz bo‘lgan bu kabi vazifalarga barham berish kerak”

Xulosa

Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda jazolarning qattiqligidan ko‘ra, ularning muqarrarligi muhimroq. Jazo qanchalik og‘ir bo‘lmasin, jazolanish ehtimollig past bo‘lavversa korrupsiya va shu kabi jinoyatlarning oldini olish imkonsiz bo‘lib qolaveradi. Jinoyatchilar ratsional qaror qabul qiluvchi agentlar bo‘lib, ular ehtimoliy foyda va yo‘qotishlarni hisobga oladi. Shu sababli, korrupsiyani kamaytirish uchun jazolanish ehtimolini oshirish hamda davlat xizmatchilarining maoshlarini ko‘tarish orqali jinoyatni iqtisodiy jihatdan foydasiz qilish zarur.

KIM KO‘PROQ TO‘LASA, O‘SHA HUKMRON

Har qanday jamiyatda adolat va qobiliyat muvaffaqiyat kaliti bo‘lishi kerak degan tushuncha mayjud. Ilm, mehnat va fidoyilik evaziga yuqori pog‘onalarga ko‘tarilish tabiiy jarayon sifatida qaraladi va bu hammada adolatli o‘yin qoidalari hukm surayotganiga ishonchni oshiradi.. Biroq, ba’zi tizimlarda bu mexanizm buzilgan ko‘rinishda bo‘ladi, natijada bilim va tajriba emas, balki shaxsiy aloqalar va moliyaviy imkoniyatlar muvaffaqiyatni belgilaydi. Davlat boshqaruvida bu hodisaning eng yaqqol ko‘rinishlaridan biri – korrupsiya bilan bog‘liq.

Korrupsiya shunchaki noqonuniy kelishuvlar yoki yashirin bitimlar emas – u jamiyat farovonligiga bilvositda ta’sir qiluvchi chuqur ildiz otgan tizim. U shaffoflik va adolatni yemiradi hamda iste’dod va bilim o‘z o‘rnini boylik va mavqe uchun kurashga bo‘shatib beradi. Aynan shunday muhitda davlat sektoridagi lavozimlar inson kapitali yuqori bo‘lgan shaxslar uchun emas, balki eng ko‘p to‘lovga tayyor bo‘lganlar uchun ochiq bo‘lib qoladi. Bu tizim asta-sekin davlat boshqaruvining sifatsizlashishiga, samaradorlikning pasayishiga va ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchning yemirilishiga olib keladi.

Ushbu maqolada aynan shu jarayon tahlil qilinadi: nega korrupsiya sharoitida inson kapitali yuqori bo‘lgan shaxslar emas, balki pora berishga tayyor bo‘lganlar yuqori lavozimlarga ega bo‘ladi? Bu qanday oqibatlarga olib keladi? Va eng muhim, bunday tizimdan qanday qutulish mumkin? Mazkur masalalarni iqtisodiy mantiq asosida tushuntirib berishga harakat qilamiz.



Shaxsiy manfaat ustunligi

Demokratiya darajasi past va davlat sektori katta bo‘lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi yuqori bo‘lishini tasdiqlovchi tadqiqotlar mayjud. Shu bilan brisa, korrupsiya yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat sektoridagi yuqori lavozimlarni egallagan shaxslarning inson kapitali nisbatan past bo‘lishi mumkinligi haqida ilmiy va nazariy jihatdan izlanish olib borish muhim masala hisoblanadi. Ushbu farazni tushuntirish uchun asosiy mexanizmlarni tahlil qilish kerak. Ishga kirish jarayonida kim qancha pora berishga tayyorligi ushbu hodisani tushuntiruvchi asosiy omillardan biridir. Davlat sektorida ishga olish qarorlarini qabul qiluvchi shaxslar, ya’ni ish beruvchilar, nomzodlarning bilim va malakalariga unchalik katta e’tibor qaratmasligi mumkin. Sababi, bu xodimlarning inson kapitali ish beruvchining shaxsiy manfaatlariga bevosita ta’sir qilmaydi. Ya’ni, davlat lavozimlarida ishlovchi ish beruvchilar deyarli barcha kelishuvlarda private-agent rolini o‘ynaydi. Ular ko‘proq moliyaviy daromad olish imkoniyatini ko‘zlab, ishga kirish uchun eng ko‘p pul taklif qilgan nomzodni tanlashga moyil bo‘lishadi. Shu sababli, davlat sektoridagi lavozimlarga ega bo‘lish uchun kim ko‘proq to‘lasa, o‘sha ishga olinadi. Bu - ish beruvchi tomonning hatti-harakatlari to‘g‘risidagi fikrlar edi. Keling, endi davlat ishiga kirishni istagan nomzodlarning xattiharakatlari to‘g‘risida mantiqiy faraz qilamiz.

ISHLAMAGAN TISHLAYDI

Nomzodlar o‘z xatti-harakatlarini belgilayotganda, boshqa nomzodlar qanday ustunlikka ega ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘ladi va shu orqali o‘z ustunligini belgilaydi. Inson kapitali yuqori bo‘lgan shaxslar, ya’ni yaxshi ta’lim oлган, tajribali va bilimli odamlar, davlat sektoridagi lavozimlarga kirishda pora to‘lashga ehtiyoj sezmasligi mumkin. Chunki ular o‘z bilimlari va malakalari orqali raqobat qilish imkoniyatiga ega ekanliklariga ishonishadi va shu sababli korrupsiya jarayoniga kamroq aralashishadi. Aksincha, bilim va malakasi past bo‘lgan shaxslar davlat sektorida yuqori lavozimni egallash uchun qo‘sishma vositalarga ehtiyoj sezadi. Bu shaxslar malaka va bilim yetishmovchilagini pora to‘lash orqali qoplashga tayyor bo‘lishadi. Shunday qilib, inson kapitalining yetarli darajaga yetmagan qismi pora orqali to‘ldiriladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, (ishga kirish uchun) yetarli bilim va nomzod bilimi o‘rtasidagi farq qancha katta bo‘lsa, nomzodning to‘lamoqchi bo‘lgan pora miqdori ham shuncha katta bo‘lishi mumkin.

AYANCHLI OQIBATLAR

Bunday tizim mavjud bo‘lsa, natijada yuqori lavozimlarga bilim va malakasi past bo‘lgan shaxslar ko‘proq kirib boradi. Quyi lavozimlarda esa aksincha, inson kapitali yuqori bo‘lgan shaxslar to‘planib qoladi, chunki ular yuqori lavozimlarga chiqish uchun pora to‘lashni istamaydi yoki bunga ehtiyoj sezmaydi. Bu esa davlat sektorida malakali insonlarning kamroq vakolatga ega bo‘lishiga, natijada esa boshqaruв samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu davlat boshqaruvida noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi, iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi va jamiyatning umumiy farovonligiga zarar yetishi ehtimoli oshiradi.

Ushbu jarayon uzoq muddatli oqibatlarga ham olib keladi. Agar yuqori lavozimlarni egallashda korrupsiya davom etsa, jamiyatda ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonch pasayadi. Malakali insonlar davlat sektoridan chetlashib, xususiy sektorga yoki xorijiy bozorlarga chiqib ketadi. Bu esa davlat sektorining malaka va tajriba jihatidan zaiflashishiga olib keladi.

Natijada, davlat idoralarida ishlovchi xodimlarning sifati pasayadi va davlat boshqaruvida yomon qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘ladi.

Bunday tizimda xalqning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi ham pasayadi. Odamlar davlat idoralariga murojaat qilishdan ko‘ra, muammolarini shaxsiy aloqalar, avtoritetlar yoki korrupsiya orqali hal qilishga harakat qilishadi. Bu jamiyatda institutsional zaiflikni kuchaytiradi va huquqiy tizimning barqarorligiga putur yetkazadi. Huquqiy tizim zaiflashganda esa investitsiyalar kamayadi, tadbirkorlik muhitiga putur yetadi va iqtisodiy rivojlanish sekinlashadi.

Bu muammolarni hal qilish uchun korrupsiyaga qarshi tizimli islohotlar zarur. Davlat sektori lavozimlariга inson kapitali yuqori bo‘lgan shaxslarni jalb qilish uchun ochiq va shaffof tanlov tizimi joriy etilishi lozim. Shu bilan birga, jinoyat uchuning jazoning muqarrarligi ta’minlanishi, sud institutining mustaqilligi mustahkamlanishi va shu orqali qonun sutuvorligi ta’minlanishi zarur.

XULOSA

Ushbu nazariy tahlil korrupsiya va inson kapitalining davlat sektoridagi taqsimlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga yordam beradi degan umiddaman. Agar davlat sektorida yuqori lavozimlarga ega bo‘lgan shaxslarning inson kapitali nisbatan past bo‘lsa, bu model real hayotda ishlayotganining isboti bo‘ladi. Shuning uchun korrupsiya sharoitida inson kapitalining davlat sektoriga ta’sirini tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqola empirik dalillarga, tadqiqotlarga emas, sofiqtisodiy mantiqqa tayanib yozildi.

Muallif:

https://t.me/economist_Martin

Muhammad Turniyozov

page 14

ERKINLIKNING IKKI TAMOYILI

ISA YA BERLIN

ESSE

Kirish

Agar bashariyat hayot intihosi haqida hech qachon murosaga kela olmaganlarida yoki ajdodlarimiz Adan bog'larida yashashda davom etishayotganida, bugun Chichele ijtimoiy va siyosiy nazariya kafedrasi[1]ga bag'ishlangan fanlar paydo bo'lмаган bo'lardi. Ushbu fanlar kelishmovchiliklар sababli paydo bo'ladi va ular tufayli rivojlanadi. Ba'zilar hatto yakuniy maqsad borasida kelishmovchiliklari bo'lмаган ideal anarchist jamiyatda[2] ham konstitutsion yoki qonunchilik kabi siyosiy masalalar yuzaga kelishi mumkin deya ta'kidlashadi. Biroq, bu e'tiroz noto'g'ri asosga ega. Agar maqsadlar kelishilgan bo'lsa, faqatgina vositalar masalasi qoladi va bu masalalar siyosiy emas, balki texnik masaladir, ya'ni ular muhandislar yoki shifokorlar orasidagi bahslar kabi mutaxassislar yo mashinalar tomonidan hal qilinadi. Shuning uchun aqlning yakuniy g'alabasi[3] yoki proletariat inqilobi[4] kabi qandaydir ulug'vor, dunyoni o'zgartiruvchi hodisaga ishonadiganlar barcha siyosiy va axloqiy muammolarni texnologik muammolarga aylantirish mumkinligiga ishonishlari kerak.

Bu Saint-Simon[5]ning "odamlar hukmronligini vositalar boshqaruvi bilan almashtirish" haqidagi mashhur iborasi va davlatning so'lishi bilan insoniyatning haqiqiy tarixi boshlanishi haqidagi marksona bashoratlarning[6] ma'nosini anglatadi. Mukammal ijtimoiy uyg'unlik holati haqida o'ylashni bo'lmag'ur tasavvur deb biladiganlar bu qarashni utopik deb ataydilar. Shunga qaramasdan, agarda Marsdan Biritaniya va Amerika universitetlariga tashrif buyurgan kelgindi borgan joyidagi insonlar shunday bir ayb-u nuqsonziz, ideal jamiyatda yasharkan degan o'yga tolsa, muhim siyosiy muammolarga bo'lgan jiddiy e'tibor tajribali faylasuflar tomonidan qaratilgani sabab kechirilishi mumkin. Bu, albatta, ajablanarli va xavfli. Ajablanarlisi shundaki, yangi tarixda, ehtimol, sharqda ham, g'arbda ham juda ko'p sonli odamlarning tushunchalari va hayoti shunchalik chuqur o'zgarishlarga duch kelgan davr bo'lмаган. Hatto zo'ravon to'ntarishlar darajasiga yetgan bunday o'zgarishlar ijtimoiy va siyosiy doktrinalarga fanatic ergashish natijasida yuz beradi. Xavfli tomoni esa, g'oyalalar bilan shug'ullanishi kerak bo'lganlar, ya'ni g'oyalarni tanqidiy ko'rib chiqishga yetarlicha imkoniyatga ega bo'lganlar ularni e'tiborsiz qoldirganda, bu

g'oyalalar ba'zan kuchayib, boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetadi. Natijada ular ommaviy tarzda odamlarga kuchli ta'sir o'tkazadi va ba'zan ularni tanqidiy fikrlashdan yiroq qiladigan darajada qattiq o'rnashib boradi. Taxminan yuz yil oldin nemis shoiri Heyne[7] fransuzlarni g'oyalalar qudratini kam baholamaslik kerakligidan ogohlantirgan edi: professorning sokin kabinetida yaratilgan falsafiy tushunchalar sivilizatsiyani barbob qilishi mumkin. U Kant[8]ning "Sof aql tanqidi" [9] asarini Yevropa deizmining[10] boshini uzgan qilich sifatida tasvirlagan va Russo[11] asarlarini Robespier[12] tomonidan eski tuzumni yo'q qilishda ishlatilgan qon bilan bulg'angan qurol deb atagan edi. Heyne Fixte[13] va Shellingning[14] romantik e'tiqodi bir kuni fanatic nemis tarafdarlari qo'lida g'arbiy liberal madaniyatga qarshi ishlatiladigan dahshatli, kuchli qurolga aylanishini bashorat qilgan. Vaqt o'tishi bilan bu bashorat aniq tasdiqlandi, ammo professorlar haqiqatdan ham bunday halokatli kuchga ega bo'lsalar, ularni zararsizlantirishga faqat boshqa

[1] Chichele (Chichele Chair of Social and Political Theory) – Oksford universitetining All Souls kollejida joylashgan, ijtimoiy va siyosiy nazariya sohasida tadqiqot va ta'limni rivojlanishiga qaratilgan kafedra. Asoschisi arxiyepiskop Henri Chichele.

[2] Ideal anarchist jamiyat – har bir shaxsnинг erkinligini hurmat qiluvchi, ijtimoiy tenglikni ta'minlaydigan kooperativiya va o'zo'zini boshqarishga asoslangan tuzilma sifatida tasavvur qilinadi. Bunda markazlashtirilgan hokimiyat mayjud bo'lmaydi.

[3] Aqlning yakuniy g'alabasi – falsafa va mantiq sohalardara muhokama qilinuvchi, mantiqiy fikrlashning inson hayotidagi ustunligi va to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyati. Bu tushuncha aqlning his-tuyg'ular ustidan g'alaba qozonishini anglatadi.

[4] Proletariat inqilobi – ischi sinfi tomonidan kapitalizmga qarshi olib borilgan ijtimoiy inqilob.

[5] Saint-Simon (1760-1825) – fransuz ijtimoiy nazariyotchisi. U sotsializmning dastlabki nazariyotchilaridan biri bo'lib, ijtimoiy tartibi ilmiy va texnologik taraqqiyotga asoslangan holda qurishni ta'kidlagan. Uning g'oyalari ijtimoiy adolat va ischilar uyuqularini himoya qilishga qaratilgan.

[6] Marksона bashoratlari – Karl Marks va Fridrix Engelsning ijtosidoy va ijtimoiy jarayonlar asosida kelajakdagi ijtimoiy o'zgarishlar, xususan, proletariat inqilobi va kommunizmga erishish jarayonini oldindan aytish. Bu bashorat sinflar kurashi va kapitalizmning injirozi g'oyalaringa tayangan.

[7] Heinrich Heine (1797-1856) – nemis shoiri, nosir va jurnalist. U romantizm va realizm yo'nalişlarida ijod qilgan. "Olmoniya. Qish dostoni" asari mashhur.

[8] Immanuel Kant (1724-1804) – nemis faylasufi, idealizm va kritika falsafasining asoschisi. Kategorik imperativ g'oyasini ishlab chiqqan, noumen va fenomen tushunchalari bilan tanilgan.

[9] "Sof aql tangidi" – Kantning eng mashhur asari (1781). Unda bilim va tajriba, shuningdek, aqlning cheklolvari va imkoniyatlarini tahlil qilindi.

[10] Deizm – Xudoning mavjudligini tan oluvchi, lekin dinning an'anaviy qoidalari va muqaddas kitoblariga ishonmaydigan falsafiy qarash. Deistlar Xudoni yaratuvchi sifatida ko'rib, uning inson hayotiga aralashishini inkor etadilar. Bu g'oya XVII-XVIII asrlarda rivojlangan.

[11] Jean-Jacques Rousseau (1712-1778) – fransuz faylasufi, yozuvchi va siyosiy nazariyotchisi. U ijtimoiy shartnomaga g'oyasi va tabiatga qaytish fikrlari bilan tanilgan. Russo inson erkinligi va tengligini ta'kidlagan. "Emil" va "Ijtimoiy shartnomasi" kabi asarlari yozgan. U fransuz ma'sifatparvarlar davri a'zosi hisoblanadi.

[12] Maximilien Robespierre (1758-1794) – fransuz inqilobchisi va siyosiy lider, Fransiya inqilobi davrida Jakoben partiyasining yetakchilaridan biri bo'lib, "Terror" davrida kuchli ta'sirga ega bo'lgan. Robespier erkinlik, tenglik va qattiq ijtimoiy adolat g'oyalarini ilgari surgan. U 1794-yilda o'zingin raqiblari tomonidan o'dirilgan.

professorlar yoki hech bo'limganda boshqa mutafakkirlar (hukumatlar yoki Kongress komissiyalari emas) qodir bo'lishi mumkin.

Bizning faylasuflarimiz o'z ishlarining shunchalik dahshatli oqibatlarini anglamayotgandek ko'rindi. Balki, eng yaxshi faylasuflar o'zlarining mavhum sohalaridagi ajoyib yutuqlaridan mast bo'lib, tubdan kashfiyot qilish ehtimoli kamroq bo'lgan sohalarga mensimay qarashadi va bu sohalarda puxta tadqiqotlar deyarli mukofotlanmaydi deb hisoblashadi. Shunga qaramay, ko'r-ko'rona sxolastik pedantizm^[15] tarafdarlarining barcha sa'y-harakatlariga qaramasdan, siyosat har qanday falsafiy tadqiqot shakli bilan hali ham uzviy bog'langan. Siyosiy fikrlar sohasini e'tiborsiz qoldirish, qolaversa uning noaniq chegaralari va beqaror mazmunini qat'iy tushunchalar, abstrakt modellari va mantiqiy yoki lingvistik tahlil uchun mo'ljallangan aniq instrumentlar bilan qamrab bo'lmasligi - falsafa uslubini bir xil bo'lishini talab qilish va bu uslub bilan muvaffaqiyatli tahlil qilib bo'lmaydigan barcha narsalarni rad etish - shunchaki oddiy va tanqidiy bo'lmagan siyosiy e'tiqodlarga bo'ysunishni anglatadi. Faqat o'ta qo'pol tarixiy materializm^[16] tarafdarlari g'oyalari qudratini inkor etishadi, chunki ular g'oyalarda faqat yashirin material (moddiy) manfaatlarni ko'rishadi. Ijtimoiy kuchlar bosimisiz siyosiy g'oyalari o'lik tug'ilishi mumkin, shu bilan birga bu kuchlar g'oyalari bilan to'ldirilmaguncha, yo'nalishsiz va ko'r bo'lib qoladi.

Hatto bugungi kunda ham bu haqiqat Oksfordning istalgan o'qituvchisi uchun yangilik emas. Aynan siyosiy g'oyalarning nazariy va amaliy jihatdagi ahamiyatini anglagani uchun va hayotini ularni tahlil qilish va tarqatishga bag'ishlagani sababli, ushbu kafedraning birinchi mudiri atrofimizdagi olamga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Duglas Koulning ismi siyosiy va ijtimoiy muammolar bilan qiziqsan odamlar orasida ma'lum-u-mashhur. Uning shuhrati ushbu universitet va mamlakat chegaralaridanda keng tarqalgan. Siyosiy fikr egasi sifatida mustaqillik, halollik va jasoratda tengsiz, favqulodda ravshanlik va notiqlik bilan ajralib turuvchi publisist va notiq, shoir va novellist, juda iste'dodli o'qituvchi va "animateur des idées" (fransuzcha "g'oyalar yaratuvchisi") bo'lgan bu inson, avvalo, umrini har doim ham mashhur bo'limgan tamoyillarga qo'rmasdan xizmat qilishga,adolat va haqiqatni qat'iy va ishtyoq bilan himoya qilishga bag'ishlagan odamdir. Aynan shu fazilatlari tufayli bu olijanob va iste'dodli ingliz sotsialisti butun dunyoda mashhur. Shuningdek, u bunday ijtimoiy mavqega o'zining tabiiyligi, his-tuyg'ularining o'z-o'zidan namoyon bo'lishi, tunganmas mehribonligi va cheksiz sadoqatidan voz kechmasdan erishganini ta'kidlash lozim. Bu sadoqat keng qamrovli ta'lim va ajoyib xotira bilan mustahkamlangan, har qanday o'rganishni istagan odamni o'qitishga tayyor bo'lgan o'qituvchilik vazifasiga bo'lgan sadoqatdir. Bu insonga nisbatan his-tuyg'ularimni ifodalashga urinshim menga chuqur mammunlik va faxr olib keladi. Men ko'plab boshqa insonlar kabi uni Oksford universiteti va butun mamlakatning faxri deb bilaman. Uning axloqiy fazilatlari va aql-zakovati adolat va insonlar tengligi yo'lidagi yutuqlarga katta hissa qo'shgan.

Aynan undan, shaxsiyati va asarlaridan, mening tengdoshlarim, Oksfordda ishlayotgan ko'plab odamlar siyosiy nazariya axloq falsafasining bir bo'limi ekanligini bilib olishdi. Bu nazariya siyosiy munosabatlar sohasida axloqiy tushunchalarni kashf qilish yoki qo'llashdan boshlanadi. Ba'zi idealist faylasuflar o'ylaganidek, men barcha tarixiy harakatlar yoki odamlar o'rtasidagi ziddiyatlar faqat g'oyalalar yoki ruhiy kuchlarning harakatlari yoki to'qnashuvlari bilan izohlanadi yoki hatto ularning natijalari (yoki jihatlari) deb aytmoxchi emasman. Ammo menimcha (va professor Koul ham bunga qarshi bo'lmasa kerak), bunday harakatlar yoki ziddiyatlarni tushunish uchun, avvalo, ular bilan bog'liq g'oyalalar yoki hayotga bo'lgan munosabatlarni tushunish kerak. Chunki aynan shu narsa, tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, bu harakatlarni insoniyat tarixining bir qismiga aylantiradi. Siyosiy atamalar, konsepsiylar va harakatlar faqat ularni qo'llaydigan yoki amalga oshiradigan odamlar o'rtasida mavjud bo'lgan masalalar kontekstida tushunarli bo'ladi. Shunday qilib, bizning shaxsiy munosabatlarimiz va harakatlarimiz, ehtimol, dunyomizdagi asosiy masalalarni tushunmagunimizcha biz uchun noaniq bo'lib qolaveradi. Ularning eng buyugi – bu ochiq urush, qaysiki, turli va hatto qarama-qarshi javoblar beradigan ikki tizim g'oyalari o'rtasida bo'lib, bu tizimlar uzoq vaqt siyosatda asosiy o'rinnni egallagan bo'ysunish va majburlash haqidagi savolni o'rta ga tashlaydi: "Nega men (yoki boshqa bir kishi) boshqasiga bo'ysunishim kerak?", "Nega men o'z xohishimga ko'ra yashay olmayman?", "Bo'ysunishim zarurmi?", "Agar men bo'ysunmasam, meni majburlashlari mumkinmi? Kim, qaysi holatda, kimning nomidan va nima maqsadda?".

[13] Johann Gottlieb Fichte (1762-1814) – nemis faylasufi, idealizmning asoschilaridan biri. U subyektiv idealizm g'oyasini rivojlantirib, "Men" tushunchasiga e'tibor qaratagan. Fixte inson erkinligi va o'z-o'zini anglashni ta'kidlagan. Uning "Mikrofon" va "Milliy davlat" kabi asarlarini mashhur.

[14] Friedrich Wilhelm Joseph Schelling (1775-1854) – nemis faylasufi, idealizmning muhim vakillaridan biri. U tabiat va ruhni birlashtiruvchi g'oyalarni rivojlantirgan. Shelling "tabiat falsafasi" va "idealizm" nazariyalarini ishlab chiqdi. Uning "Tabiat falsafasi" va "Erkinlik falsafasi" kabi asarlarini mashhur. Romantizm va estetikaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

[15] Sxolastik pedantizm – o'rta asrlar sxolastik falsafasi va ta'lim tizimidan kelib chiqqan, ilmiy va diniy g'oyalarni qattiq, mexanik ravishda o'rganish va izchil ravishda qo'llash uslubidir. Bu uslub, ko'pincha, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni cheklab, faqat klassik manbalarga suyanishga olib keladi.

[16] Tarixiy materializm – Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan ishlab chiqqan g'oya bo'lib, tarix va ijtimoiy rivojlanishni materialistik asosda tushuniradi. Bu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy va moddiy shart-sharoitlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini belgilaydi.

Hozirgi kunda dunyoda majburlashga ruxsat etilgan chegaralar haqida turli xil qarashlar mavjud va har bir qarash ko'plab odamlarning qo'llab-quvvatloviga ega. Shuning uchun, mening nazarimda, ushbu masalaning istalgan jihatni diqqat bilan ko'rib chiqishga munosibdir.

Insonni majburlash uni erkinlikdan mahrum qilishni anglatadi, aynan qanday erkinlikdan? Insoniyat tarixidagi deyarli barcha axloqshunoslar erkinlikni ulug'lashgan. Bu so'zning ma'nosi, "baxt" va "yaxshilik", "tabiat" va "haqiqat" so'zlari kabi, shunchalik kengki, deyarli har qanday talqinga imkon beradi. Mening na tarixni va na g'oya tarixchilari tomonidan qayd etilgan bu so'zning ikki yuzdan ortiq ma'nolarini muhokama qilish niyatim yo'q. Men faqat ikkita asosiy ma'noni ko'rib chiqishni taklif qilaman, chunki ular o'tmishda va ishontirib aytamanki, kelajakda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bu siyosiy ma'nolardan birinchisini men "salbiy" deb atayman, va bu quyidagi savolning javobi bilan bog'liq: "Qaysi sohada bir odam yoki jamoa boshqa odamlarning aralashuviziz o'zini qanday bo'lsa, shundayligicha tutishi va u qila oladigan ishlarni bajarishga yo'l qo'yishi mumkin, yoki yo'l qo'yilishi kerak?" Ikkinchi ma'noni esa "ijobiy" deb atayman, u quyidagi savolning javobi bilan bog'liq: "Nima yoki kim boshqaruv yo aralashuv manbayi bo'lib, kimgadir qaysidir ishni qilishni, boshqa narsani emas, aynan shunday qilishni buyurishi mumkin?" Garchi ularga berilgan javoblar bir-birini qisman to'ldirishi mumkin bo'sada, bu ikki savol bir-biridan butunlay farq qiladi.

I “Salbiy” erkinlik tushunchasi

Odatda, hech kim yoki hech qanday tashkilot mening ishlarimga aralashmasa, men erkinman deb hisoblaniladi. Shu ma'noda, siyosiy erkinlik bu, shunchaki odam boshqalarning aralashuviziz harakatlanishi mumkin bo'lgan maydondir. Agar boshqalar men qaysidir darajadagi harakatlarni amalga oshirishimga xalaqt bersalar, demak men ushbu darajada erkin emasman. Agar ushbu erkinlik maydoni boshqalar tomonidan ma'lum bir minimumdan ko'proq qisqartirilsa, men haqimda "majburlanyapti" yoki, hatto, "qullashtirilyapti", deb aytish mumkin. Shunga qaramay, majburlash insonning barcha imkoniyatsizlik shakllarini o'z ichiga olmaydi. Agar men o'n fudan balandroq sakray olmasligimni, ko'r bo'lganim uchun o'qiy olmasligimni yoki Hegelning eng murakkab sahifalarini tushunolmasligimni aytsam, bunday holatda meni qullashyapti yoki majburlashyapti, deb aytish g'alati bo'lar edi. Majburlash deganda, men qarama-qarshi holatda harakatlarimni amalga oshirishim mumkin bo'lib turganda, boshqalarning qasddan aralashuvlari tushuniladi. Siz siyosiy erkinlikdan faqat odamlar sizga biror maqsadga erishishingizga to'sqinlik qilganda mahrum bo'lasiz. Maqsadga erisha olmaslik oddiy qobiliyatsizlik tufayligina bo'lsa bu siyosiy erkinlikning yo'qligini anglatmaydi. Bu "iqtisodiy erkinlik" yoki uning aksi "iqtisodiy qullik" kabi zamonaviy iboralarda namoyon bo'ladi.

Juda asosli qilib aytishadiki, agar odam qonun tomonidan taqiqlanmagan biror narsani – non sotib olish, dunyo bo'ylab sayohat qilish va sudga murojaat qilishni – juda qashshoqligi sababli o'zi uchun ravo ko'rmasa, uning bu narsalarni olishdagi erkinligi, go'yoki qonun bilan taqiqlanganday bo'ladi. Agar mening qashshoqligim, masalan, oqsoqlik yugurishga xalaqt bergani kabi, non sotib olishga, dunyo bo'ylab sayohat qilishga yoki sudga murojaat qilishga xalaqt beradigan kasallikdan kelib chiqqan bo'lsa, bu qobiliyatsizlik tabiiy ravishda erkinlikning, ayniqsa siyosiy erkinlikning yo'qligi sifatida qaralmas edi. Faqatgina, mening biror narsani olishga qodir emasligim boshqalar tomonidan qabul qilingan qarorlar bilan bog'liq bo'lib, ular menga bu narsani sotib olish uchun yetarli pulga egalik qilishimga to'sqinlik qilgan taqdirda, men o'zimni "majburlash" yoki "quldarlik" qurbanli deb hisoblayman. Boshqacha qilib aytganda, bu so'zning qo'llanilishi mening qashshoqligim yoki bechoraligim sabablariga oid muayyan ijtimoiy va iqtisodiy nazariyaga asoslanadi. Agar moddiy vositalarimning yo'qligi mening aqliy yoki jismoniy qibiliyatlarimning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lsa, men bunday nazariyani tushungandagina erkinlikdan mahrum bo'lish haqida gapira boshlayman (faqat qashshoqlik haqida emas). Bundan tashqari, agar men o'zimni adolatsiz deb biladigan biror qaror tufayli ehtiyojmand bo'lishga majburlanayotganimga ishonsam, iqtisodiy qullik yoki zulm haqida gapiraman. "Tabiat bizni aqdan ozdirmaydi, buni faqat yovuz iroda qilishi mumkin," degan edi Russo.

[13] Johann Gottlieb Fichte (1762-1814) – nemis faylasufi, idealizmning asoschilaridan biri. U subyektiv idealizmning g'oyasini rivojlantirib, "Men" tushunchasiga e'tibor qaratgan. Fixte inson erkinligi va o'z-o'zini anglashni ta'kidlagan. Uning "Mikrofon" va "Milliy davlat" kabi asarlarini mashhur.

[14] Friedrich Wilhelm Joseph Schelling (1775-1854) – nemis faylasufi, idealizmning muhim vakillaridan biri. U tabiat va ruhni birlashtiruvchi g'oyalarni rivojlantirgan. Shelling "tabiat falsafasi" va "idealizm" nazariyalarini ishlab chiqdi. Uning "Tabiat falsafasi" va "Erkinlik falsafasi" kabi asarlarini mashhur. Romantizm va estetikaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

[15] Sxolastik pedantizm – o'rta asrlar sxolastik falsafasi va ta'lif tizimidan kelib chiqqan, ilmiy va diniy g'oyalarni qattiq, mexanik ravishda o'rganish va izchil ravishda qo'llash uslubidir. Bu uslub, ko'pincha, mantiqiy va nazariy jihatdan aniq bo'lmagan, lekin an'anaviy bilimlarga asoslangan fikr yuritishni anglatadi. Sxolastik pedantizm, ko'pincha, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni cheklab, faqat klassik manbalarga suyanishga olib keladi.

[16] Tarixiy materializm – Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan ishlab chiqqigan g'oya bo'lib, tarix va ijtimoiy rivojlanishni materialistik asosda tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy va moddiy shart-sharoitlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini belgilaydi.

Zulmning mezoni boshqalarning bevosita yoki bilvosita, qasddan yoki bilmasdan mening istaklarimning amalga oshmasligida qanday rol o'ynashidir. Shu ma'noda, erkinlik deganda men chetdan boshqalarning aralashmasligini tushunaman. Boshqalarning aralashuvi qanchalik kam bo'lsa, mening erkinligim shunchalik keng bo'ladi.

Ingliz siyosiy falsafasining klassiklari ham bu so'zni aynan shu ma'noda ishlatalishgan. Ular bu maydonning qanchalik keng bo'lishi mumkin yoki bo'lishi kerakligi haqida bir xil fikrda bo'lishgan. Ular, bunday holda erkinlik cheksiz bo'lishi mumkin emas deb hisoblashgan, chunki, u holda hamma odamlar bir-biriga cheksiz xalaqt berishi mumkin bo'lar edi. Bunday "tabiiy" erkinlik ijtimoiy xaosga[17] olib kelardi, bu esa odamning hatto minimal ehtiyojlarini qondirishiga imkon bermas yoki kuchlilar zaiflarning erkinligini bostirgan bo'lardi. Bu faylasuflar insoniy maqsad va harakatlar avtomatik ravishda bir-biriga mos kelmaydi deb hisoblaganliklari va (rasmiy doktrinalardan qat'i nazar) ularadolat, baxt, madaniyat, xavfsizlik yoki tenglikni (turli darajalarda) yuqori baholaganliklari sababli, boshqa qadriyatlar va, aslida, erkinlikning o'zi uchun ham erkinlikni cheklashga tayyor edilar. Aks holda ular xohlagen jamiyatni yaratish mumkin emas edi. Shuning uchun ham bu fikr yurituvchilari insonning erkin harakat qilish maydonini qonun bilan cheklash kerak deb hisoblashgan. Shunday qilib, Angliyada Lokk[18] va Mill[19], Fransiyada Konstant[20] va Tokvil[21] kabi erkinlikni sevuvchi faylasuflar tomonidan shaxsiy erkinlikning ma'lum bir minimal maydoni bo'lishi kerak va bu maydon hech qanday holatda buzilmasligi kerak deb hisoblangan, aks holda, odam o'zining tabiiy qobiliyatlar bilan,

hech bo'lmasa minimal darajada rivojlanish uchun ham juda tor bo'lgan maydonda qolib ketadi, vaholanki aynan shu maydon unga (insonlar tomonidan yaxshi, to'g'ri yoki muqaddas deb hisoblangan) turli maqsadlarga erishishga (va hatto ularni o'ylashga) imkon beradi. Shundan kelib chiqadiki, shaxsiy hayot maydoni bilan davlat hokimiyyati o'rtaida chegara o'rnatish zarur. Bu chegarani qayerda belgilash esa bahsli mavzu. Umuman olganda, odamlar bir-biridan mustaqil emas va hech bir kishining faoliyati boshqalarning hayotiga hech qachon, hech qanday ta'sir o'tkazmaydigan darajada mutlaq shaxsiy emas. "Sulaymon o'lsa, devlar qutiladi", ya'ni ba'zilarning erkinligi boshqalarning cheklovlariga asoslanishi kerak. Ma'lumki, bu maqolning yana bir varianti ham mavjud: "Oxford o'qituvchisi uchun erkinlik – Misrik oddiy dehqon uchun erkinlikdan butunlay boshqacha narsa".

Bu fikr, qandaydir juda aniq va muhim bo'sada, aslida siyosiy balandparvoz gap bo'lib qolmoqda. To'g'ri, yarim yalang'och, savodsiz, och va kasal odamlarga siyosiy huquqlar yoki davlat aralashuvidan himoya qilish haqida so'zlash, ularning ahvoli ustidan kulish bo'lardi. Ular erkinlikni kengaytirish nima ekanligini tushunishlari yoki undan foydalana olishlaridan oldin tibbiy xizmat va ta'limga muhtoj. Birinchi navbatda - birlamchi narsalar: XIX asr radikal rus yozuvchisi aytganidek, ba'zi holatlarda etiklar Shekspirdan muhimroqdir, shaxsiy erkinlik har bir odamning birlamchi ehtiyoji hisoblanmaydi.

"Chunki erkinlik, shunchaki, har qanday turdag'i istaklarning qondirilaverishi emas" deydigan bo'lsak, biz bu so'zning ma'nosini shunchalik kengaytirib yuborgan bo'lamizki, u juda ko'p yoki juda kam narsani anglatib qoladi. Misr dehqoniga shaxsiy erkinlikdan ko'ra kiyim-kechak va dori-darmonlar ko'proq va ertaroq zarur, ammo bugun unga zarur bo'lib turgan minimal erkinlik va ertaga kerak bo'lishi mumkin bo'lgan kattaroq darajadagi erkinlik u uchun maxsus bir erkinlik turi emas, balki professorlar, san'atkorlar va millionerlarning erkinligi bilan bir xil.

Lekin, menimcha, g'arb liberallarining vijdonini qiyaydigan narsa odamlarning intilayotgan erkinligi ularning ijtimoiy yoki iqtisodiy sharoitlariga qarab farq qilayotganligi emas, balki bu erkinlikka ega bo'lgan ozchilik, uni, ko'pchilikni ekspluatatsiya qilish orqali qo'lga kiritgan yoki hech bo'limganda bu haqiqatga ko'z yumib qaraydi degan fikrdir. Bu liberallar asosli ravishda, shaxsiy erkinlik insoniyatning asosiy maqsadlaridan bira bo'lsa, hech kim undan boshqalar tufayli mahrum bo'lmasligi kerak, albatta, hech kim undan boshqalarning hisobiga foydalanmasligi kerak deb biliшadi. Erkinlikdagi tenglik, boshqalarga, o'zimga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlarini xohlamasam, ularga ham shunday munosabatda bo'lmashlik, erkinligim, farovonligim yoki ta'lim olishimga imkoniyat berayotgan insonlarga qarzimni qaytarish; ya'ni, adolatning eng oddiy va eng keng tarqalgan ma'nolari, liberal axloqning asoslaridir.

[17] Ijtimoiy xaos – bu jamiyatda tartibszilik, nizolar va beqarorlik holati. U ko'pincha ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy omillar natijasida yuzaga keladi. Ijtimoiy xaos ta'sirida odamlar o'rtaida ishonch yo'qoladi, resurslar taqsimoti buziladi va ijtimoiy muvozanan parchalangan bo'ladi. Bu holat fuqarolar o'rtaida to'qnashuvlar, norozlik harakatlari va hatto zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Ijtimoiy xaosni bartaraf etish uchun muloqot, hamkorlik va barqor siyosat zarur.

[18] John Locke (1632-1704) – ingliz faylasufi, liberalizmning asoschilaridan bira va empirizm oqimining muhim vakilli. Uning eng mashhur asarlardan bira "Inson tushunchalar haqida" (An Essay Concerning Human Understanding) bo'lib unda tushunchalar bilan jarayonlarini tahlil qildi.

[19] John Stuart Mill (1806-1873) – ingliz faylasufi, iqtisodchi va ijtimoiy nazariyashunos. U klassik liberalizmning muhim namoyandalaridan bira bo'lib, uning asarlari erkinlik, adolat va inson huquqlari masalalariga bag'ishlangan. Mill "Erkinlik" (1859) asarida shaxsiy erkinlikning ahamiyatini ta'kidlaydi.

[20] Benjamin Constant (1767-1830) – shveysariyalik fransuz siyosatshunos, yozuvchi va liberal fikrlar yetakchisi. U "Liberalizm" konsepsiyasini rivojlantirgan va individual erkinlik, demokratiya va qonun ustuvorligi haqida yozgan. Eng mashhur asarlardan bira "Liberalizm prinsiplari" bo'lib, unda erkinlik va ijtimoiy tartib o'rtaisdagi muvozananai ta'kidlaydi.

[21] Alexis de Tocqueville (1805-1859) – fransuz siyosatshunos va yozuvchisi. Eng mashhur asari "Amerika munshaoti" (1835) bo'lib, unda Amerika demokratiyasini va uning ijtimoiy ta'sirlarini o'rganadi. Tokvil individualizm, ijtimoiy tenglik va demokratyaning kuchi, hamda zaif tomonlarini tahlil qilgan.

Erkinlik insonlarning yagona maqsadi emas. Rus tanqidchisi Belinskiy kabi, aytaylik, agar boshqalar erkinlikdan mahrum bo‘lishi kerak bo‘lsa, agar birodarlarim qashshoqligidan, nochorlikda, zanjirband qolishi kerak bo‘lsa, men o‘zim uchun ham erkinlikni xohlamayman, uni ikkala qo‘lim bilan rad etaman, ularning taqdirini o‘zim bilan bo‘lishishni mutlaqo afzal ko‘raman. Ammo atamalarni chalkashtirish bilan hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Ko‘zga tashlanadigan darajadagi tengsizlik yoki keng tarqalgan qashshoqlidan qutulish uchun, men erkinligimning bir qismimi yoki hatto hammasini qurban qilishga tayyorman: buni tayyorgarlik bilan va erkin tanlov asosida amalga oshirishim mumkin, ammoadolat, tenglik yoki yaqinlarga bo‘lgan muhabbat tufayli men erkinligimni qurban qilaman. Agar ma’lum bir holatda shunday qurbanlikka tayyor bo‘lmasam, meni aybdorlik hissi ta’qib qilgan va buni o‘z aybim deb hisoblagan bo‘lardim. Ammo qurbanlik tufayli qurban qilingan narsa, ya’ni erkinlik, bunday qurbanlik uchun qanday ma’naviy ehtiyoj qondirilishidan yoki uning mukofoti bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘payib qolmaydi. Har bir narsa qanday bo‘lsa shundaydir: erkinlik – bu erkinlikdir, halollik,adolat, madaniyat, baxt yoki vijdon xotirjamligi emas. Agar men, mening sinfim yoki xalqimning erkinligi boshqa odamlarning qashshoqligiga bog‘liq bo‘lsa, buni ta’minkaydigan tizim adolatsiz va axloqsizdir. Lekin agar men bunday tengsizlikni kamaytirish uchun erkinligimni cheklasam yoki yo‘qotsam va natijada boshqalarning shaxsiy erkinligi moddiy jihatdan ko‘paymasa, u holda bu erkinlikning mutlaq yo‘qotilishidan boshqa narsa emas. Bu yo‘qotishadolat, baxt yoki tinchlik kabilarning ortishi bilan qoplanishi mumkin, ammo yo‘qotish baribir yo‘qotishligicha qoladi. Agar men “liberal” shaxsiy erkinligim yo‘q qilingan bo‘lsada, “ijtimoiy” yoki “iqitisodiy” erkinliklarimning ayrimlari ko‘paydi desam – bu qadriyatlarni aralashtirish bo‘lib qoladi. Shunga qaramay, ba‘zilarning erkinligini boshqalarning erkinligini ta’minalash uchun ba‘zan cheklash kerak bo‘ladi. Ammo, qaysi tamoyilga asoslanib buni amalga oshirish kerak? Agar erkinlik muqaddas va buzilmas qadriyat bo‘lsa, unda, bunday tamoyil mavjud bo‘lishi mumkin emas. O‘zaro zid tamoyillarning biri, kamida amaliyotda, chekinishi kerak: buning sabablarini odatda oson tushuntirib bo‘lmaydi, hatto ulardan umumiy qoidalar chiqarish ham qiyin. Ammo shunga qaramay, amaliy va real murosa topish zarur.

Inson tabiatiga optimistik[22] qaragan va inson manfaatlarining uyg‘unlashishiga ishonadigan faylasuflar, masalan, Lokk, Adam Smit[23] va ba‘zan Mill – ijtimoiy uyg‘unlik va taraqqiyot na davlat va na boshqa har qanday hokimiyat aralashmaydigan keng individual erkinlik[24] chegarasi bilan mos kelishi mumkin, deb hisoblashgan. Gobbs va u bilan hamfikr bo‘lganlar, xususan konservativ[25] yoki reaksiyon fikrlovchilar[26], agar odam-larni bir-birlarini yo‘q qilishdan va ijtimoiy hayotni jungliga yoki cho‘lga aylantirishdan himoya qilish kerak bo‘lsa, ularni tiyib turish uchun jiddiyroq ehtiyoj choralarini kiritish kerak deb hisoblashgan. Gobbs xohlagan narsa, markazlashgan boshqaruva hududini individual hududning qisqarishi evaziga kengaytirish edi. Ammo ikkala taraf ham shaxsiy hudud ijtimoiy nazoratdan holi qolishi kerakligi to‘g‘risida murosali edi. Ushbu hududga davlat tomonidan qilingan kichik tajovuz ham despotizmga[27] olib kelgan bo‘lardi. Barcha erkinlik va shaxsiy hayot himoyachilari orasida eng ta’sirchani bo‘lmish Benjamin Konstant, yakobinlar diktaturasini yodda tutgan holda, hech bo‘limganda din erkinligi, o‘z fikrini shakllantirish va ifodalash erkinligi hamda mulk huquqi o‘zboshimcha aralashuvdan kafolatlanishi kerakligini ta’kidlagan. Jefferson[28], Burk[29], Peyn[30], Mill individual erkinliklarning turli kataloglarini tuzdilar, ammo hokimiyatni qo‘l ostida ushlab turish uchun dalillar doim bir xil bo‘lgan. Agar biz o‘z tabiatimizni rad yoki yakson qilishni istamasak, shaxsiy erkinlik uchun minimal maydon parvarishlab borishimiz kerak. Biz mutlaq erkin bo‘la olmaymiz va erkimizning ma’lum qismidan voz kechish orqali qolgan qismini parvarishlaymiz. Lekin, butkul o‘ziga taslim bo‘lish o‘zni mahv etish kabitidir. Unda yuqorida nazarda tutilgan minimum qanday bo‘ladi? Bu inson o‘z tabiatini mohiyatini kamsitmay voz kecholmaslidir. Bu mohiyat nima? Bu qaysi standart-larni nazarda tutadi? Bu doimo cheksiz bahs mavzusi bo‘lgan va ehtimol shunday bo‘lib qoladi. Biroq, daxlsiz-lik sohasi qaysi tamoyilga asoslanishidan qat’i nazar, bu tabbiy huquq yoki tabbiy haq, foydalanish, kategorik amr bayonoti yoki ijtimoiy shartnomaga muqaddasoti yoki insonlar o‘z e’tiqodlarini oqlash va ochiqlash uchun tirishadigan boshqa har qanday tushunchada erk o‘zgaruvchan lekin, yaqqol namoyon bo‘ladigan chiziqdandan tashqari aralashuv yo‘qligini anglatadi.

[22] Optimizm – ijobji fikrlash va kelajakdan yaxshi natijalar kutish haqidagi qarash. Optimistik odamlar muammolarga ijobji munosabatda bo‘lib, hayotdagisi yaxshi narsalarni ko‘ra bilishadi.

[23] Adam Smit (1723-1790) – shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf, zamoniy iqtisodiyoting asoschilaridan buri. Uning eng mashhur asri “Millatlar boyligi” (1776) bo‘lib, unda bozor iqtisodiyoti, erkin savdo va raqobatning ahamiyatini ta’kidlaydi.

[24] Individual erkinlik – shaxsning o‘z xohisiga ko‘ra harakat qilish va qarorlar qabul qilish huquqi. Bu princip inson huquqlari, shaxsiy erkinlik va demokratiya asoslaridan birdir.

[25] Konservativ fikrlovchilar – an‘analar, ijtimoiy tarib va o‘zarishlarga ehtiyojkorlik bilan yondashishni qo‘llab-quvvatlovchi shaxslar.

[26] Reaksiyon fikrlovchilar – ijtimoiy va siyosiy o‘zarishlarga qarshi chiqadigan shaxslar, ko‘pincha o‘zarishlarga oldingi holotga qaytishini maqsad qildilar.

[27] Despotizm – bir shaxs yoki kuchli guruh tomonidan mutlaq nazorat ostida bo‘lgan hukumat shakli. Bu rejimda fuqarolar huquqlari cheklangan, erkinlik va demokratik jarayonlar yo‘qoladi. Despotizm ko‘pincha zulum va repressiya bilan bog‘liq.

[28] Thomas Jefferson (1743-1826) – amerikalik siyosatchi, AQShning uchinchi prezidenti va Mustaqillik Deklaratasiyining muallifi. U individual erkinlik va demokratiya g‘oyalarini ilgari surgan. Jeffersona agar jamiyatini va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga intilgan.

[29] Edmund Burke (1729-1797) – britaniyalik siyosatchi va faylasuf, konservativning asoschilaridan buri. U ijtimoiy an‘analarni, tarixiy tajribalarni va tartibni saqlashni ta’kidlagan. “Fransuz inqilobi”ga qarshi chiqib, o‘zgarishlarga ehtiyojkorlik bilan yondashishni qo‘llab-quvvatlagan.

[30] Thomas Paine (1737-1809) – amerikalik yozuvchi va siyosiy faol, liberal g‘oyalarni ilgari surgan. Uning “Mantiqiy ajidalari” va “Mustaqillik uchun da‘vat” asarlari inqilobiy ruhni kuchaytirgan. Peyn erkinlik, tenglik va demokratik qadriyatlarni himoya qilgan.

O‘z chem-pionlarining eng obro‘lisi “O‘z nomiga munosib bo‘lgan yagona erkinlik – bu manfaatimizga o‘z yo‘limizda intilishimizdir” degan edi. Agar shunday bo‘lsa hech zamonda majburlashni oqlab bo‘ladimi? Mill bu borada shubhalanmas edi. Adolat barcha uchun minimal erkinlikni taqozo qilsa, boshqa barchani hech kimni bundan mahrum qilmaslik uchun kuch bilan bo‘lsada tizinlab turish lozim bo‘ladi. Aslida, huquqning butun faoliyati shu kabi tirashuvlarning oldini olish edi, davlat esa Lasalle^[31] haqoratomuz ta’riflaganidek tungi qorovul yoki yo‘l politsiyasi darajasiga tushurib qo‘yildi.

Aynan nima Mill uchun individual erk himoyasini bu qadar muqaddaslashtirdi? O‘zining mashhur esseyida, agar odamlar “faqat o‘zlariga tegishli yo‘lda” o‘zlar xoqlagancha yashashlari uchun qoldirilmasalar, tamaddun yuksala olmaydi, g‘oyalalar uchun erkin bozor yo‘qligi sababli haqiqat yuzaga chiqmaydi, o‘z-o‘zidan, o‘ziga xoslik, daho, aqliy energiya, ma’naviy jasorat uchun imkoniyat bo‘lmaydi. Jamiyat “kollektiv o‘rtamiyonalik” bilan eziladi. Nimaiki, turfa va boy bo‘lsa odatiylik vazni bilan, insonlarning ma’qullashga moyilligi bilan eziladi, bu esa o‘z navbatida “so‘ngan qobiliyatlar”, “chimchilangan va dunyoqarashi tor”, “siqilgan va egilgan” insonlarni tarbiyalaydi. “Majusiyarlarning o‘zini e’tirof qilishi nasroniyarlarning o‘zini inkor etishi kabi qiymatlidir.” “Kishining maslahat va ogohlantirishlarga qarshi qilishi mumkin bo‘lgan barcha xatolari, boshqalarning uni yaxshi deb bilgan narsaga majburlashiga yo‘l qo‘yish yomonligidan ancha ustundir”. Erk mudofaasi “salbiy” maqsadni, daxlini bartaraf qilishni ko‘zlaydi. Bir insonni agar u maqsadlaridan voz kechadigan hayotga rozi bo‘lmasa ta’qib qilish bilam tahdid qilish, uning oldida bittadan boshqa barcha eshiklarni yopib qo‘yish, bu eshik ochadigan loyiha qanchalik ezgu istiqbolli bo‘lmasin, yoki bu ishni qilyotganlarning niyatlari qanchalik xayriyoh bo‘lmasin bu ish uning insonlik haqiqatiga, o‘z hayotini yashash huquqiga qarshi gunohdir. Bu liberallar zamonaviy dunyoda to Erasmus [32](ba’zilar Okkam gacha [33] deb bilishadi) davridan boshlab qabul qilgan erkning ta’rifidir .

Vatandoshlik erklari va individual kurashlar uchun har o‘tinch, eksplutatsiya va kamshitishga, davlat hokimiyatining tajovuzkorligiga yoki odatlar yoki uyushgan tashviqotning ommaviy gipnoziga qarshi har e’tiroz ushbu individualistik va ulkan bahsli inson tushunchasidan kelib chiqadi.

Bu pozitsiyaga oid uchta fakti qayd qilib o‘tish joiz. Birinchi o‘rinda Mill ikkita farqli tushunchani chalkashtiradi. Ulardan biri shundaki, har qanday zo‘rlama insonning xohish-istiklarini puchga chiqarar ekan nihoyatda yomondir, garchi uni boshqa, kattaroq yovuzliklarning oldini olish uchun qo‘llash joiz bo‘lsada, zo‘rlovga qarama-qarshi bo‘lgan aralashmaslik yaxshi bo‘lsa ham, bu yagona yaxshilik emas. Bu erkning o‘zining klassik qiyofasidagi “salbiy” tushunchasi. Boshqasi shuki insoniyat haqiqatni kashf qilish uchun yoki Mill tomonidan ma’qullangan xarakterning ma’lum bir turini ishlab chiqish – tanqidiy, o‘ziga xos, xayoliy, mustaqil, ajiblik nuqtasiga mos kelmaydigan va hokazo uchun izlanishi kerak. Shu yo‘l bilangina haqiqatni topish mumkin va bunday xarakterni tarbiyalash mumkin, bu esa erkinlik sharoitidagina imkonli. Ikkalasi ham liberal qarashlar, lekin o‘xshash emas, ular orasidagi aloqa nari borsa empirik bo‘ladi. Hech kim haqiqat yoki o‘zini ifodalash dogmasi^[34] har qanday o‘yni yanchib tashlaydigan joyda yashnab ketishini iddao qilmaydi. Lekin, tarixiy dalillarga ko‘ra (Jeyms Stefanning “Erk, tenglik va qardoshlik” asarida Millga dahshatli e’tirozli iddao qilinadi) hamijihatlik, haqiqatparvarlik, olovli individualizm hech bo‘limganda, masalan, Shotlandiya yoki Yangi Angliyaning puritan kalvinistlari^[35] yoki harbiy intizom ostida qattiq intizomli jamoalarda, bag‘rikengroq yoki befarq jamiyatlarda bo‘lgani kabi tez-tez rivojlanib turadi. Agar bu qabul qilinsa, Mill ta’kidlagan erkning inson kamoloti uchun zaruratligi iddaosi puch bo‘lib chiqadi. Agar uning ikkita maqsadi bir-biriga mos kelmasa, Mill o‘z ta’limotlarining qat’iy utilitarizmga^[36] nomuvofiqligi natijasida yuzaga kelgan boshqa qiyinchiliklardan tashqari, hatto o‘zining insonparvar versiyasida ham shafqatsiz dilemmaga^[37] duchor bo‘lar edi.

[31] Ferdinand Lassalle (1825-1864) – nemis sotsialisti va siyosiy faoli, sotsializm asoschilaridan biri. U ishechilar huquqlari va ijtimoiy adolatni himoya qilgan.

[32] Desiderius Erasmus (1466-1536) – gollandiyalik guumanist(insonparvar) va faylasus. U Renessans davrida diniy va ijtimoiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlagan. “Ingliz tilidagi qaramlik” va “Adabiyot va axloq” kabi asarlar orqali diniy sabr-toqat va ta’limni ta’kidlagan. Erasmus katolik cherkovining tanqidchisi ham bo‘lgan.

[33] William of Occam (1287-1347) – ingliz faylasufi va teologgi (ilohiyotshunos). “Okkamning qalamni” tamoyili bilan mashhur. U oddiylikni afzal ko‘rib, murakkab g‘oyalarni kamaytirishga chaqirgan. Uning fikriga ko‘ra, eng kam farazlar bilan eng ko‘p ma’lumotlarni tushuntirish kerak. Okkam diniy va falsafiy masalalarda mantiqiy usullarni qo‘lashni ta’kidlagan.

[34] Dogma – biror diniy, falsafiy yoki siyosiy ta’limotda qat’iy qabul qilingan, o‘zgartirilmaydigan asosiy g‘oya yoki prinsip.

[35] Kalvinist – J.Kalvin asos slogan protestant diniy eqimi, predestinasiyani (oldindan belgilash) ta’kidlaydi.

[36] Utilitarizm – axloqiy qarorlar qabul qilishda eng kata foyda yoki baxt keltiruvchi natijalarni Afzal ko‘rish g‘oyasi.

[37] Dilemma – ikki yoki undan ortiq tanlov o‘rtasida qiyin tanlov qilish zaruriyat.

Ikkinchini tomondan ushbu doktrina qiyosiy va zamonaviy hamdir. Qadimgi dunyoda individual erk siyosiy ideali borasida juda ham kam babs bo'lgan (garchi bu dolzarb mavjudiyatiga zid bo'lsa ham). Kondorset allaqachon individual erk Yunoniston va Rim legal konsepsiyalarida uchramasligini ta'kidlagan. Ayni holat Yahudiy, Xitoy va boshqa barcha qadimgi tamaddunlarga ham tegishli. Ushbu idealning hukmronligi qoidadan ko'ra ko'proq istisnoga yaqinroq, hattoki zamonaviy G'arb tarixida ham. Bu borada erk insoniyat uchun ulkan ommaviy ko'tarilishlarga ham sabab bo'lmagan. Siltalanmaslik, o'z holiga qo'yish istagi individuallar tomonida ham, jamoalar tomonida ham yuksak tamaddun belgisi bo'lgan. Shaxsiy hayotning o'zi, shaxsiy munosabatlar sohasining o'ziga xos qutlug' sifatidagi tuyg'usi barcha diniy ildizlariga qaramay, o'zining rivojlangan holatida Uyg'onish yoki Reformatsiyadan deyarli eski bo'lmagan erkinlik tushunchasidan kelib chiqadi. Shunday bo'lsada uning so'nishi tamaddun ma'naviy qiyofasining butkul halokatidan dalolat qiladi.

Erk tushunchasining uchinchi jihatni ulkan ahamiyat kasb qiladi. Bu ma'noda erk avtokratiyaning^[38] ba'zi turlari yoki o'z taqdirini o'zi belgilamaslikning hech bir ko'rsatkichi bilan nomutanosisib emas. Erk bu borada nazorat hududi bilan tamoyiliy aloqador, o'z manbasi bilan emas. Demokratiya har bir vatandoshni jamiyatning boshqa shakllarida ega bo'lishi mumkin bo'lgan juda ko'p erklaridan mahrum qilishi mumkin bo'lganidek, liberal fikrli despot^[39] o'z fuqarolariga katta miqdordagi shaxsiy erkinlik berishga imkon berishini to'liq tasavvur qilish mumkin.

O'z qo'l ostidagilarga keng erk maydonini qoldirgan despot adolatsiz bo'lishi yoki eng vahshiy tengsizlikka da'vat qilishi, tartib, fazilat yoki bilimga unchalik ahamiyat bermasligi mumkin; biroq, u o'zgalarni erkidan mahrum qilmaslik yoki boshqa tuzumlarga nisbatan kamroq mahrum qilishi sharti bilan Millning ixtisoslashuviga mos tushadi. Erkinlik bu ma'noda hech bir ko'rsatkichga ko'ra demokratiya yoki o'zini o'zi idora qilish bilan bog'lanmagan. O'z-o'zini boshqarish, umuman olganda, boshqa rejimlarga qaraganda fuqarolik erkinliklarining saqlanishini yaxshiroq kafolatlashi mumkin va liberarlar tomonidan shu tarzda himoyalangan. Lekin, individual erk va demokratik qoida o'rtasida zarur bog'lanish mavjud emas. "Meni kim boshqaradi?" degan savolga javob "Qayoqqacha hukumat men bilan daxldor bo'ladi?" savoliga beriladigan javobdan mantiqan farqlanadi. Chunki, "Nima qilishda va bo'lishda erkinman?" emas, "Kim tarafidan boshqarilayapman?" yoki "Men kimman va kim emas man, nima bo'lishim yoki qilishim kerak?" savoliga javob izlasak "ijobi" erk tuyg'usi yoritiladi. Demokratiya va individual erk o'rtasidagi bog'lanish ikkisining tarafдорлари o'ylaganlaridan ko'ra ancha zaif. O'zim tarafimdan boshqarilish yoki qaysidir ma'noda hayotimni yo'naltirish jarayonida ishtirok etish istagi harakatlanish uchun ochiq hudud istagi bilan tengdosh, balkida moziyan keksaroq hamdir. Biroq, bu ikki istak ayni bir emas. Bular shu qadar farqliki, bizning dunyomizda hukmronlik qiladigan maskulular kurashini yetaklashgacha borgan. Shu bois ham erkning ijobi tushunchasi "dan erkinlik emas", "ga erkinlik", salbiy tushuncha tarafдорлари ba'zida shafqatsiz istibdod uchun o'ziga xos niqobdan yaxshiroq emasligini anglatadigan hayot tarzini ilgari surish uchun kerak.

[38] Avtokratiya – hukumat shakli, unda bir shaxs yoki guruh davlatni mutlaq nazorat ostida boshqaradi.

[39] Despot – mutlaq hukmronlik qiluvchi shaxs, ko'pincha zulm va repressiya orqali o'z hokimiyatini saqlaydi.

Qadrli o'quvchi, jurnalning har yangi sonida yangi maqola va tarjima asarlarning davomini o'qishingiz mumkin. Agar loyiha siz uchun manfaatli bo'lsa biz bundan benihoya xursadmiz. Bizni qo'llab quvvatlamoqchi bo'lsangiz, quyidagi havola orqali donat qiling va loyihaning bardavom bo'lishiga hissa qo'shing!

<https://tirikchilik.uz/martineden>